

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Toshkent Moliya instituti**

**X.M. SHENNAYEV, S.E. SHIRINOV**

# **QAYTA SUG‘URTA**

**o‘quv qo‘llanma**

**TOSHKENT  
«IQTISOD-MOLIYA»,  
2009**

**Shennayev X.M., Shirinov S.E.** Qayta sug'urta. O'quv qo'llanma. —T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009, - 88 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish, shartnomalarini tuzish, qayta sug'urta operatsiyalarini tartibga solishning nazariy va amaliy bilimlariga bag'ishlangan.

O'quv qo'llanma o'zbek tilida dastlabki kitob hisoblanadi. O'quv qo'llanmaning birinchi bobida sug'urta va qayta sug'urta munosabatlariga umumiy sharh berilgan. Keyingi boblarda qayta sug'urta shakllari va turlari, ularni amalga oshirish, qayta sug'urta shartnomalarini tuzish, tartibga solish usullari yoritilgan.

Ushbu kitobdan O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida, kollejlarida "Sug'urta ishi" yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalar uchun o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

O'quv qo'llanma Toshkent Moliya institutining ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan (2009-yil 16-apreldagi 3- sonli Kengash qarori).

**Taqrizchilar:** M.Almardonov — "Soliq va sug'urta ishi"  
fakulteti dekani, i.f.d. professor;  
R.Raimjonov — "Kafolat" DASK  
bosh menejeri i.f.n. dotsent

**ISBN 918-9943-13-125-5**

© «IQTISOD-MOLIYA», 2009  
© X.Shennayev, S.Shirinov, 2009

## KIRISH

Respublikamizda iqtisodning boshqa tarmoqlari bilan birga sug'urta tizimi ham bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos holda qayta tashkil qilinmoqda. Bunga asosiy sabab birinchidan, sug'urta tizimi bozor infratuzilmasiga xizmat qiluvchi asosiy institut hisoblansa, ikkinchidan, sug'urta tizimi respublikamizda faoliyat yurituvchi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarni baxtsiz hodisalar natijasida yuzaga keluvchi zararlardan himoya qilsa, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishidir.

Erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishda respublikamizning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlaridan biri – makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va uni ta'minlash, aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish bo'ldi. Shu sababli respublikamizda sug'urta bozorini shakllantirish va uni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblandi.

Albatta, respublikamiz sug'urta tizimida sug'urta bozorini rivojlantirish borasida ko'plab ishlar qilindi: sug'urta tizimida institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi, uning huquqiy va tashkiliy-huquqiy asoslari shakllantirildi, 30 ga yaqin turli mulkchilik maqomidagi sug'urta tashkilotlari ro'yxatga olindi. Davlat sug'urta tashkilotlari bo'lgan sug'urta kompaniyalari hissadorlik jamiyatlariga asoslangan kompaniyalarga aylantirildi. Davlat sug'urta nazorati idorasi tashkil qilindi va boshqa chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Sug'urta tizimida erishilgan yutuqlarimiz bilan bir qatorda ayrim muammolar ham mavjud. Shunday muammolardan biri – sug'urtaning barcha tarmoqlari va kichik tarmoqlari talab darajasida rivojlanmaganligidir. Bunga asosiy sabablaridan biri ushbu sohada o'quv adabiyotlarining yetarli emasligidir.

Qayta sug'urta sug'urta munosabatlarida muhim o'rin egallaydigan murakkab tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sug'urtaning ushbu sohasi ham respublikamizda talab darajasida rivojlanmagan. Masalan, respublikamizda ixtisoslashgan qayta sug'urta tashkiloti hozircha faqat bitta, ixtisoslashmagan holda qayta sug'urta operatsiyalari olib boruvchi sug'urta tashkilotlarining

qayta sug'urta operatsiyalarining ulushi ham kichik miqdorni tashkil qiladi. Qayta sug'urta munosabatlarini rivojlantirish uchun qayta sug'urta nazariyasini respublikamizdagi sharoitini inobatga olib, rivojlantirishimiz va bu borada darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa ilmiy izlanishlar qilishni talab qiladi.

O'quv qo'llanmada qayta sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, shakllari, turlari, ularni amalga oshirish mexanizmi, huquqiy asoslari va boshqa muhim tomonlari aks etgan.

## **I BOB. QAYTA SUG'URTANING MOHIYATI VA AHAMIYATI**

### **1.1. Sug'urta munosabatlari va ularning vujudga kelishi**

Sug'urta – bu, yuridik yoki jismoniy shaxslarning faoliyatlarida uchragan turli xil zararlarni ko'plab shaxslar o'rtasida taqsimlash orqali qoplab berish usulidir. Zararlarni qoplash, oldini olish va ogohlantirish maqsadida sug'urta tashkilotlari tomonidan pul jamg'armalari shakllantiriladi va ulardan maqsadli foydalaniladi.

Sug'urta munosabatlari moliya munosabatlari kabi, pul jamg'armalarini shakllantirish va qayta taqsimlash jarayonida paydo bo'ladi. Sug'urta munosabatlari moliyaviy munosabatlar tarkibiga kiruvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Sug'urta munosabatlarining asosiy o'ziga xos belgilaridan biri bu, sug'urta riskining mavjudligi.

Risk ayrim adabiyotlarda “tavakkalchilik”, “tahlika” deb tushuntiriladi. Risk o'z hajmiga, miqdoriga va ko'lamiga ega bo'ladi. Uning xajmi, miqdori ehtimollar nazariyasi va matematik statistika va moliyaviy matematika usullari yordamida aniqlanadi.

Risklarni sug'urtaviy va sug'urtasiz guruhlariga bo'lishimiz mumkin. Sug'urta shartnomalarida sug'urtaga olinadigan risklar sug'urtaviy risklar deyiladi. Sug'urtaviy risklar me'yori va miqdori baholanadi. Risk bahosi pulda ifodalinishi sug'urta stavkasini tashkil etadi. Risk doimiy ko'rsatkich emas, balki u doimo o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar iqtisoddagi va boshqa sohadagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Riskning eng katta guruhini sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar tashkil etadi. Quyida keltirilgan mezonlar asosida sug'urta riskini sug'urtasiz risklardan farq qilish mumkin:

- riskning ro'y berishi tasodifiy xarakterga ega bo'lmog'i zarur;
- sug'urta hodisalarini ro'y berish vaqti va maqonining noma'lum bo'lishi.

- Xavf solish manbasiga ko'ra risklarni tabiatning stixik kuchlari bilan bog'liq risklar va moddiy boylikni o'zlashtirish oqibatida insoniyatni

tabiatga ta'siri bilan bog'liq risklar toifalariga bo'lishi mumkin. Risklarni turkumlashda katta halokatli risklar alohida o'rin tutadi. Chunki bunday risklar ro'y berishi natijasida ko'plab sug'urta obyektlari yirik miqdorda zarar ko'rishi mumkin. Bunday halokatli risklarga zilzila, sunami, kuchli shamol, sel kelishi, suv toshqini, qor ko'chishi misol bo'lishi mumkin.

Riskni baholashda uning holatlari aniqlanadi va ular guruhlariga ajratiladi. Ularning ehtimoliyligi aktuar hisob-kitoblar, statistik kuzatuvlar, ehtimollar nazariyasi asosida baholanadi va sug'urta tarif stavkalari belgilanadi.

Sug'urtaga olingan risklar sug'urta tashkilotlari tomonidan tazorat qilinadi. U sug'urta kompaniyasi tomonidan kuzatuv ishlarini olib borish orqali bajariladi.

Risklarni boshqarish ma'lum miqdorda uni moliyalashtirishni talab qiladi.

Riskni moliyalashtirish — bu risklarni aniqlash, ularni baholash va nazorat qilish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplashdir.

Sug'urta munosabatlari moliya tushunchasi kabi taqsimlash xarakteriga ega. Sug'urta munosabatlari orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

Sug'urta mexanizmi orqali zararlar hududlar bo'yicha va muayyan bir vaqtda taqsimlanadi. Va bu sug'urtaning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Hududlar bo'yicha sug'urta jamg'armasini shakllantirish va sug'urtalangan xo'jaliklar o'rtasida taqsimlash uchun ko'p miqdorda sug'urtalanuvchilar bo'lishi zarur. Zararlarni ma'lum bir vaqtda taqsimlanishi sug'urta hodisalarini tasodifiy ro'y berish xarakteriga ega ekanligidan kelib chiqadi. Ayrim yillar mobaynida sug'urtaga olingan risklar ro'y bermasligi mumkin. Bu holat sug'urta hodisalari sodir bo'lmagan vaqtda tegishli miqdorda sug'urta zaxiralarini tashkil etishni talab qiladi.

— Davlat budjetidan farqli ravishda sug'urta munosabatlarida sug'urta fondlariga jalb etilgan sug'urta mukofotlarining ayrim qismi sug'urtalanuvchilarga qaytarib beriladi. Sug'urta tarifi ikki qismdan iborat bo'lib, netto-stavka (sug'urta hodisalari ro'y berganda zararlarni qoplashga ishlatiladi) va netto-stavkaga ustamalardir (sug'urta kompaniyasi ishini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar qoplanadi). Netto-stavka, asosan, sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamalari sifatida qaytarib beriladi.

Sug'urta sug'urtalash tartibiga asosan majburiy va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Majburiy sug'urta turlariga doir sug'urta shartlari qonun hujjatlarida

belgilab qo'yiladi. Ixtiyoriy sug'urtalashga doir sug'urta tariflarining miqdori tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

Sug'urta munosabatlarida quyidagi tomonlar qatnashadilar: sug'urtachi, sug'urtalanuvchi va sug'urta vositachilari.

Sug'urtalovchi – sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 4-aprelda qabul qilgan «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar turli mulk shakliga ega bo'lishi mumkin. Ularni tashkiliy huquqiy jihatidan davlat sug'urta tashkilotlari, aksionerlik sug'urta tashkilotlari hamda o'zaro sug'urtalash jamiyatlari, keptiv sug'urta tashkilotlari toifalariga bo'lish mumkin.

O'zini sug'urta risklaridan himoya qilish maqsadida sug'urta shartnomalarini tuzgan, tegishli sug'urta mukofotlarini to'lovchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urtalovchi bo'ladi.

Sug'urta munosabatlarida sug'urta vositachilari ham muhim o'rin egallaydi. Sug'urta vositachilari – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik vazifasini bajaruvchi yuridik va jismoniy shaxslardir. Ular sug'urtachi va sug'urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. Ko'rsatgan xizmatlari uchun vositachi sug'urtalanuvchidan emas, balki sug'urta kompaniyasidan tegishli vositachilik haqini oladi. Sug'urta bozorida sug'urta bozorining professional ishtirokchilari ham qatnashadilar. Aktuariylar, adjasterlar, syurveyerlar sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadilar.

Sug'urta obyektini sug'urta turiga qarab farqlanadi. Masalan, shaxsiy sug'urtada fuqarolarning hayoti, sog'ligi, mehnat qobiliyati bilan bog'liq manfaati; mulkiy sug'urtada binolar, qurilmalar, transport vositalari uy-joy mulki, tashiladigan yuklar va boshqa moddiy boyliklarni saqlashga bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaati; jismoniy yoki yuridik shaxsning o'z xatti-harakati bilan uning uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik mas'uliyati - mas'uliyatni sug'urtalashda sug'urta obyektlari bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtaning beshta funksiyasi mavjud. Investitsiya sug'urtaning birinchi funksiyasidir. U orqali sug'urta tashkiloti qo'shimcha ravishda daromad oladi.

Sug'urtaning axborot yig'ish va axborot berish faoliyati uning ikkinchi funksiyasi hisoblanadi.

Sug'urtada sug'urta jamg'armasini tashkil qilish va uni taqsimlash navbatdagi funksiyalar hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan funksiyalar sug'urta faoliyatida doimiy hisoblanadi va har qanday sharoitda o'zgarib qolmaydi. Sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun sug'urta tashkilotida sug'urta fondlarini tashkil qilish zarur. Aksincha hollarda moliyaviy ahvoli murakkablashishi mumkin. Tashkil etilgan sug'urta fondning mablag'lari sug'urta xodimalari ro'y berganda qoplama berish uchun ishlatiladi.

Sug'urta mexanizmining quyidagi elementlari mavjud: sug'urta dalolatnomasi, sug'urta polisi, sug'urta puli, sug'urta mukofoti, sug'urta shartnomasi va boshqalar.

Sug'urta polisi – sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining ism-sharifi, sug'urta obyekt, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta koplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur.

Sug'urta dalolatnomasi – sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan hujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yohud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma xulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjaster yoki avariya komissari tuzadi va u avariya sertifikatiga yaqinlashadi.

Sug'urta mukofoti – sug'urta xizmatini ko'rsatganlik uchun to'lanadigan haq. Sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil egalari uchun sug'urta shaxsiga zarar keltirish fuqarolik javobgarligini sug'urtasida sug'urta mukofoti aniq pul birligida ko'rsatiladi.

Sug'urta puli – sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik obyektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi.



Sug'urta shartnomasi sug'urtachi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida tuziladigan yuridik hujjat. U ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida tuziladigan yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisini beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi.

Adjaster sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urtalanuvchining e'tirozini o'rganib chiqadi va muammolar, nizolarni tartibga soladi. U sug'urta tashkilotining manfaatlarini himoya qiladi. Adjaster sug'urta hodisasini ro'y berish sabablarini o'rganadi va sug'urta qoplamasi miqdorini sug'urtalanuvchi bilan kelishgan holda aniqlaydi. Adjaster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

Aktuariy – lotin tilidan olingan bo'lib, hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassisdir. U sug'urtada tarif stavkalarini hisoblash, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zaxiralarini shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Dispasher – dengiz transportida sug'urta hodisasi ro'y berganda, ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi mutaxassis. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar sug'urta nazariyasida dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun haqni manfaatdor tomonlar to'laydi.

### **Nazorat savollari**

1. Sug'urta munosabatlariga xarakteristika bering.
2. Sug'urtaviy risklarning belgilarini aytib bering.
3. Sug'urta funksiyalari nimalardan iborat?
4. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari kimlar?
5. Sug'urta dalolatnomasi va sug'urta polislariga sharh bering.
6. Dispasherning vazifalari nimalardan iborat?
7. Sug'urta pulini tushuntirib bering.
8. Aktuariy kim?
9. Risklarni taqsimlash deganda nimani tushunasiz?
10. Qayta sug'urtaning vazifasi nimalardan iborat?

## **1.2. Qayta sug'urtaning mazmuni va uning sug'urta munosabatlarida tutgan o'rni**

Qayta sug'urta sug'urtaning mustaqil tarmog'idir. U sug'urtachini sug'urta shartnomasi asosida, sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy zararlardan himoya qiladi, sug'urtachining imkoniyatlar doirasini kengaytiradi. Katta hajmdagi sug'urta risklarini (tavakkalchiliklarini) jahon sug'urta xo'jaligida ikkilamchi tartibda qayta taqsimlaydi.

Qayta sug'urtalash – sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni ikkilamchi joylashtirish). Sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalari bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko'rinishida bo'ladi. Bundan tashqari qayta sug'urtalash nisbiy va nonisbiy shaklda bo'ladi.

Ayrim holatlarda qayta sug'urtalash operatsiyalari qayta sug'urtalovchi broker - ikkita tomon, ya'ni sug'urta kompaniyasi va qayta sug'urtalovchi kompaniyasi o'rtasidagi vositachidir.

Tsedent riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi tsedent retrotsedent deb ataladi. Bunda qayta sug'urtalashda sessiya atamasi ham keng qo'llaniladi. Sessiya sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayonidir.

Sug'urta kompaniyasi ham qayta sug'urtalovchi sifatida bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik sug'urtalovchilar guruhiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, Shveysariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatlari kiradi.

Qayta sug'urtalash natijasida to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining sug'urtalash imkoniyatlari kengayadi, sug'urta summasining va sug'urta hodisasining yuzaga kelish ehtimollari kattaligi sababli sug'urtalash mumkin bo'lmagan sug'urta obyektlarini ham sug'urtalash uchun imkoniyat yaratib beradi. Qayta sug'urtalash sug'urtachiga sug'urta faoliyatida mavjud bo'lgan quyidagi risklar ta'sirini minimallashtirishga imkon beradi.

Kutilmagan zararlar tavakkalchiligida:

- sug'urta to'lovlari miqdorining notekis tebranishi;

– sugʻurta yili mobaynida, sugʻurtalanuvchilar tomonidan sugʻurta; toʻlovlarni talab qiluvchi arizalarning notekis taqdim qilinishi;

– bitta sugʻurta hodisasi bilan bogʻliq boʻlgan koʻp miqdordagi sugʻurta shartnomalarida sugʻurtalangan tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar yuz berishi natijasida koʻriluvchi favqulodda katta miqdordagi zararlar (kumulyativ zararlar).

Moliyaviy riskda:

– valuta kursining tebranishi, inflatsiya natijasida bahoning va mehnat haqining oʻsishi bilan bogʻliq sugʻurta toʻlovlarining oldin belgilangan miqdoriga nisbatan koʻpayishi (asosan tibbiyot va javobgarlik sugʻurta tarmoqlarida);

– texnologik rivojlanish natijasida, oldingi sugʻurtalangan sugʻurta riski miqdori yangi xavf-xatar miqdoriga, shuningdek, oldingi belgilangan sugʻurta mukofotlari miqdoriga nomutanosib boʻlishi.

Xato qilish bilan bogʻliq riskda:

– sugʻurta mukofotini hisoblashda notoʻgʻri xulosa qilish (statistika maʼlumotlaridan notoʻgʻri foydalanish).

Qayta sugʻurta shartnomasi dastlab Tenul shahrida, 1970-yilda, ikki savdogar oʻrtasida tuzilgan. Ikki savdogar qayta sugʻurtachi sifatida, toʻgʻridan-toʻgʻri sugʻurtachi boʻlgan uchinchi shaxs manfaatlarini sugʻurta obyekti sifatida qabul qilgan. Dengiz orqali Tenuldan Bryugega joʻnatilgan tovar toʻgʻridan-toʻgʻri sugʻurta obyekti boʻlib xizmat qilgan. Albatta, ushbu qayta sugʻurta operatsiyasi kutilmaganda stixiyali koʻrinishida, bir marta amalga oshirilgan. Ammo, savdo munosabatlarining rivojlanishi, Italiya shaharlari va Florensiyada, Ganzey ittifoqi davlatlarida yangi iqtisodiy dunyoqarashlarning paydo boʻlishi qayta sugʻurtaning ahamiyatini yanada oshirdi va rivojlanishiga turtki boʻldi.

XIX asrning oʻrtalarida Yevropa davlatlarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi katta miqdordagi sugʻurta risklarini qayta sugʻurtalashga boʻlgan talabni yanada kuchaytirdi. Sugʻurta xizmatlari spektorining kengayishi, yangi sugʻurta risklarini sugʻurta qoplamasi bilan taʼminlash sugʻurtalovchiga faqat qayta sugʻurta qilish orqaligina amalga oshirish mumkin boʻldi.

Keltirilgan qayta sugʻurta taʼrifi va boshqa shu kabi tushunchalar qayta sugʻurtaning iqtisodiy mohiyati boʻyicha bir qancha xulosa qilishga yordam beradi:

qayta sugʻurta shartnomasining predmetini asosini sugʻurtachining toʻgʻridan-toʻgʻri sugʻurta shartnomasi asosida qabul qilingan zararni toʻlash riski tashkil qiladi. Hozirgi zamon texnikaviy oʻzgarishlar va qayta sugʻurta

imkoniyatlarining kengayishi qayta sug'urta sohasida ham jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda nafaqat alohida olingan sug'urta riski qayta sug'urta obyekt bo'lmoqda, balki to'g'ridan-to'g'ri sug'urtaning alohida olingan shartnomasi bilan bog'liq risklar yig'indisi (obligator ko'rinishidagi qayta sug'urtalash) yoki to'g'ridan-to'g'ri sug'urtaning turli shartnomalari bilan bog'liq risklar majmuasi, (zontik ko'rinishi) yoki asosiy sug'urtachining sug'urta faoliyati bilan bog'liq sug'urtaviy va moliyaviy risklar majmuasi (moliyaviy qayta sug'urta) ham qayta sug'urta qilinmoqda.

Qayta sug'urtalash shartnomasiga risklarning boshqa turlarini ham kiritish mumkin (masalan, valuta riski va to'lab berish riski). So'zsiz, bu kabi qo'shimcha risklar turli mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan qayta sug'urta subyektlari o'rtasida imzolangan qayta sug'urta shartnomalari bilan uzviy bog'liq.

Qayta sug'urta shartnomasida riskni qabul qiluvchi boshqa sug'urtachi (qayta sug'urtachi) bo'lib maxsus, qayta sug'urtachi jamiyatlar yoki qayta sug'urta bilan qo'shimcha ravishda shug'ullanuvchi sug'urta tashkilotlari xodimlari xizmat qilishi mumkin.

Sug'urtalanuvchi sug'urtachi bilan to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasini tuzishda imzolangan qayta sug'urta shartnomasi to'g'risida bilmaligi mumkin. Qayta sug'urta yordamida mavjud risklarni ikkilamchi tartibda qayta taqsimlanadi. Risklarni ikkilamchi taqsimlanishida sug'urtachi, qayta sug'urtachi yoki bir qancha qayta sug'urtachilar ishtirok etishlari mumkin. Qayta sug'urta munosabatlarida sug'urtalanuvchi va qayta sug'urtachi o'rtasida hech qanday huquqiy munosabatlar paydo bo'lmaydi.

Qayta sug'urta xizmatini ixtisoslashgan qayta sug'urtachilar bilan bir qatorda qayta sug'urta ikkinchi darajali faoliyati bo'lgan sug'urta tashkilotlari ham ko'rsatishi mumkin. Ixtisoslashgan qayta sug'urtachi tashkilotlari faqat qayta sug'urta xizmati ko'rsatadi. Jahon sug'urta xo'jaligida qayta sug'urta tashkilotlari faoliyatini tartibga solish har xil mamlakatda har xil amalga oshiriladi. Bu esa turli davlatlarda joylashgan qayta sug'urtachi tashkilotlar tomonidan qayta sug'urta xizmatini ko'rsatishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. AQSH va Buyuk Britaniyada qayta sug'urtachi jamiyatlar ro'yxatdan o'tishi zarur bo'lsa, Germaniya, Fransiya davlatlarida qayta sug'urtachi jamiyatlar faoliyati ro'yxatga olinmaydi va sug'urta nazorati tomonidan nazoratga olinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziya berish tartibiga asosan, qayta

sug'urta bilan shug'ullanuvchi sug'urta jamiyatlari maxsus litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Qayta sug'urtachi tashkilotlar Ustav jamg'armasi kamida 4 mln. AQSH dollarini tashkil qilishi va kamida 90 % pul mablag'i bilan kiritilgan bo'lishi zarur.

Ba'zi mamlakatlarda sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urta faoliyati alohida sug'urta turlariga qarab qayta sug'urtaning ma'lum sug'urta turiga ixtisoslashishi mumkin.

Odatda qayta sug'urta o'z xizmatini to'g'ridan-to'g'ri sug'urta taklif qiladigan sug'urta xizmati turlari bo'yicha taklif qiladi.

Qayta sug'urta jamiyatlari hissadorlik jamiyati ko'rinishida tashkil qilinadi.

Qayta sug'urta sug'urta sohasida alohida tadbirkorlik turi bo'lib, XIX asrning o'rtalarida shakllandi. 1846-yilda Kyoln shahrida qayta sug'urtaga ixtisoslashgan birinchi sug'urta tashkiloti tashkil topdi. O'tgan davr mobaynida qayta sug'urta o'zining xizmat turlarini va shakllari sonini kengaytirib, sug'urta riskini ikkilamchi taqsimlovchi kuchli omilga aylandi.

Qayta sug'urta xizmatining o'ziga xos xususiyati, qayta sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi fuqaro ma'muriy-huquqiy qonunlarning alohida tarmoq bo'lib shakllanishiga olib keldi. Hududiy kelishuvlar bilan tartibga solinuvchi xalqaro savdo tartiblarida ushbu qayta sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olina boshlandi.

Sug'urtalangan riskni kelishilgan shart va to'lovlar asosida to'g'ridan to'g'ri sug'urtachi va qayta sug'urtachi o'rtasida taqsimlanishi, sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi to'lashi lozim bo'lgan zararlarni qoplashda qayta sug'urtachining ishtirok etishi qayta sug'urtaning asosiy iqtisodiy mohiyatini tashkil qiladi.

Qayta sug'urtaning hozirgi zamon sug'urta xo'jaligidagi ahamiyati quyidagi funksiyalarini bajarishida ko'rinadi:

- to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi tomonidan sug'urta risklarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha moliyaviy kapital bilan ta'minlash;
- qabul qilingan sug'urta risklarini ikkilamchi tartibda taqsimlanish;
- har bir hisobot yili davrida sug'urtachi moliyaviy faoliyati natijasini barqarorlashtirishni ta'minlash;
- sug'urtachining yillik balansini himoya qilish;
- to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining soliq to'lovlari rejallashtirishda qatnashish;
- to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachini aktivlarini yig'ish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit bilan ta'minlash;

– to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtachining to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlarini yaxshilashga ko‘mak berish;

– sug‘urtaga olingan risklar bo‘yicha yuzaga kelgan sug‘urta hodisasi zararlarini operativ tartibga solish uchun zarur bo‘lgan aktivlar bilan ta‘minlash.

Yuqorida keltirilgan funksiyalar qayta sug‘urta tashkilotlarining asosiy vazifalari hisoblansa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtachi uchun esa ikkilamchi faoliyat bo‘lib hisoblanadi.

Qayta sug‘urta shartnomasi alohida tuzilgan kelishuv bo‘lsada, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtachi tomonidan tuzilgan shartnomaga asoslanadi. Qayta sug‘urta alohida sug‘urta xizmati bo‘lib, o‘z bahosiga ega. Bu baho qayta sug‘urta xizmatiga bo‘lgan talab va takliflar asosida shakllanadi. Uning miqdori qayta sug‘urta turi va shakliga ham bog‘liq.

O‘zining mohiyati bo‘yicha qayta sug‘urta xalqaro biznes hisoblanadi. Chunki sug‘urtaga qabul qilingan riskni qayta taqsimlanishi chet el kapitalidan foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi zamon jahon qayta sug‘urta bozori to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bozoriga nisbatan ko‘proq globallashuv protsessiga uchragan va sug‘urta, bank, fond kapitallarining harakatlariga duch keladi. Ushbu protsess qnlab milliard AQSH dollari miqdoridagi zararlarga olib keluvchi tabiiy ofatlarni qayta sug‘urtasi uchun zarur bo‘lgan moliyaviy kapital miqdorini ko‘paytirish bilan bog‘liqdir.

Jahon qayta sug‘urta bozori ulushiga to‘g‘ri keluvchi jami sug‘urta mukofotlari hajmini baholash yetarlicha murakkab hisoblanadi. Chunki jahonda qayta sug‘urta bilan shug‘ullanuvchi hisobsiz professional qayta sug‘urta kompaniyalari bilan bir qatorda oddiy sug‘urta kompaniyalari ham qo‘shimcha faoliyat sifatida qayta sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatadi.

*Standart and Poor’s* Xalqaro reyting agentligi tomonidan berilgan ma‘lumotga asosan, XX asrning oxirlarida qayd qilingan qayta sug‘urta tashkilotlarining soni 214 tani tashkil qilgan. Ushbu qayta sug‘urta tashkilotlari tomonidan hayotni va hayotdan boshqa faoliyatni qayta sug‘urta qilishdan olingan sug‘urta mukofoti 89,9 mlrd. AQSH dollariga tenglashgan. *Swiss Re* kompaniyasi tomonidan keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, qayta sug‘urta mukofoti hajmi, butun jahon miqiyosida 124,0 mlrd. AQSH dollariga tenglashgan.

Turli davlatlarda ro‘yxatga olingan qayta sug‘urtachi jamiyatlar o‘rtasida qayta sug‘urta mukofotining geografik taqsimlanishi quyidagi ko‘rinishga ega: Germaniya qayta sug‘urtachi jamiyatlari ulushi 22% , AQSH 24%, Italiya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiya davlatlari

qayta sug'urtachi tashkilotlarining birgalikdagi ulushi 34%. G'arbiy Yevropa va AQSH da ro'yxatga olingan qayta sug'urta jamiyatlarining qayta sug'urta mukofotlarini jahon qayta sug'urta tashkilotlari sug'urta mukofotlari hajmidagi ulushi 75% dan ko'proq qismini tashkil qiladi.

Keltirilgan ma'lumotlar hozirgi zamon jahon qayta sug'urta bozorida barqaror, turg'un qayta sug'urta markazlari shakllanganligini tasdiqlamoqda. AQSH, Markaziy Yevropada, jumladan, Lloyd va Bermudlarda jahon qayta sug'urta mukofotining 10%ga yaqin qismi to'plandi.

Oxirgi 10 yil davomida ro'y berayotgan biznesning globallasuv protsessi, qayta sug'urta operatsiyalarining konsentratsiyalashuviga va yirik qayta sug'urta guruhlarini shakllanishiga olib keldi. Shunday guruhlardan biri Swiss Re kompaniyasidir. Uning tarkibiga quyidagi kompaniyalar kiradi: Shveysariyaning Syurix shahrida ro'yxatga olingan Swiss Re kompaniyasi, Swiss Re Amerika, Swiss Re Angliya, Swiss RE Italiya, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi Life Re, Mevcantile & General Re, Union Re.

O'z navbatida General cologne Re guruhi ham quyidagi sug'urta kompaniyalarini o'z ichiga oladi: AQSH hududida faoliyat olib boruvchi General Re, Germaniyada faoliyat olib boruvchi Cologne Re, boshqa mamlakatlarda faoliyat olib boruvchi Cologne Re (Dublin) (moliyaviy operatsiyalarining qayta sug'urtasiga ixtisoslashgan), London sug'urta bozorida faoliyat olib boruvchi General Re (Evrope), London sug'urta bozorining sug'urta xizmatini ko'rsatuvchi General Star, brokerlar orqali qayta sug'urta qiluvchi sindikat Lode VR Mann. Dunyoning 75 mamlakatida guruh o'zining vakolatxonalariga, shuba korxonalariga ega.

General Cologne Re ning Berkshire Hatheway moliyaviy guruhiga kirishini inobatga olinsa, birgalikdagi kapitali 110,0 mlrd AQSH dollarining tashkil qiladi. Ushbu moliyaviy guruh tarkibiga AQSH bozorida sug'urta xizmati ko'rsatuvchi bir qancha sug'urta ko'mpaniyalari, shuningdek, National Indemnity jamiyatlari ham kiritilgan. Mazkur moliyaviy guruhning yillik aylanmasi 955,4 mln AQSH dollariga tenglashgan.

Yuqorida ko'rsatilgan jahon sug'urta bozorining globallasuvi ko'rsatkichlaridan tashqari jahon qayta sug'urta bozorining xarakterlovchi quyidagi qayta sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlarining belgilash mumkin:

– Jahon sug'urta bozorining barqarorlashtirish, sug'urta risklarini taqsimlanishida keng geografik sug'urtachilarni ishtirokini ta'minlash maqsadlarida qayta sug'urta biznesini geografik jihatidan diversifikatsiya qilinishi zarurligi;

– qayta sug‘urtaning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirilish (hayotni, tibbiy sug‘urtani, kredit sug‘urtasini, siyosiy risklar sug‘urtasini va boshqa sug‘urta faoliyatlarining qayta sug‘urtalarini);

– mijozlarga xizmat ko‘rsatish bazasini takomillashtirish, qayta sug‘urtachilar faoliyatini universallashtirish (jumladan, risk – menejmenti, aktivlarni boshqarish, ma‘lumotlar texnologiyasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohalarida xizmat ko‘rsatishlarga);

– qayta sug‘urta jamiyatlarini boshqarish samarasini oshirish hisobidan xarajatlarni kamaytirish, kapitalashtirishni kengaytirish yo‘li bilan moliyaviy barqarorligini ta‘minlash.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtadagi kabi, qayta sug‘urta sohasida ham qayta sug‘urta biznesining konsentratsiyalashuvi, qayta sug‘urtachilarning bir-biriga qo‘shilishi, birlashishi dunyoda qayta sug‘urtachi jamiyatlarining sonini kamayishiga olib kelmoqda. Faqat 1985-1996-yillar mobaynida AQSHda ro‘yxatga olingan qayta sug‘urtachi jamiyatlarining soni 97 tadan 72 taga kamaygan va bu kamayish tendensiyasi hozirgacha davom etmoqda.

1993-1997 yillar mobaynida global tabiiy ofatlarning kamayishi, qayta sug‘urtachi jamiyatlarining yiriklashuvi qayta sug‘urta qiymatining va qayta sug‘urta himoyasiga bo‘lgan talabning kamayishiga olib keldi. Mazkur protsesslar ta‘siri natijasida «muqobil» qayta sug‘urtalash shakllarini, qayta sug‘urta va sug‘urta majburiyatlarining xavfsizligini ta‘minlash choralarini paydo bo‘lishiga olib keldi.

Mutaxassislarining hisob-kitobi bo‘yicha muqobil qayta sug‘urta mukofoti jahon qayta sug‘urta mukofotining 35-40% ni tashkil qiladi. Ammo ushbu ko‘rsatkich sezilarli darajada yuqori bo‘lishi lozim. Chunki muqobil – moliyaviy qayta sug‘urta xizmati kundan kunga rivojlanmoqda va jahon sug‘urta xo‘jaligida mavjud muammolarni hal qilishda uning roli oshmoqda.

Moliyaviy qayta sug‘urta haqidagi dastlabki konsepsiya 70-yillarning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. U obligator qayta sug‘urta shaklining mantiyiqiy rivojlanish natijasi bo‘lib, bir necha yil uchun sug‘urtaning har xil turlari va sinflari bo‘yicha qayta sug‘urta himoyasi bilan ta‘minlaydi.

Qayta sug‘urtachilar o‘z faoliyati davomida quyidagi muommolarga duch keladi:

– sug‘urtaning kapitallanish darajasining o‘sishi natijasida oldingi yilda shartnomada belgilangan shartlar asosida qayta sug‘urta qilishga qiziqish yo‘qligi;

– Kapitallashish darajasining o‘sishi bilan bog‘liq holda qayta sug‘urta xizmatiga bo‘lgan talabning qisqarishi natijasida, qayta sug‘urta xizmati bahosining arzonlashishi;



– sug‘urtachilar o‘zlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta faoliyatlari natijalarini (zarar va zararligini) qayta sug‘urta qilish bilan bir qatorda, umumiy moliyaviy faoliyatining natijasini moliyaviy, bozor, soliq qonunchiligi, valuta qonunchiligi, hissadorlar siyosati va boshqa nosug‘urtali sabablar (sug‘urta hodisasi ro‘y berish ehtimolligini hisoblash imkoniyati yo‘q, an‘anaviy sug‘urta qilib bo‘lmaydigan risklar bilan bog‘liq sabablar), o‘zgarishi bilan bog‘liq risklarga qarshi qayta sug‘urta qilinishdan ham manfaatdor bo‘lishi.

An‘anaviy qayta sug‘urta xizmat uchun belgilangan qat‘iy to‘lovlar evaziga, bir yil muddat davomida, alohida tanlangan yoki bir xil guruhdagi risklar bo‘yicha qayta sug‘urta xizmati taklif qilinadi. Albatta, qayta sug‘urta komissiyasi kabi instrumentlar yordamida, foyda hisobidan sug‘urta xizmati bahosi miqdorini sezilarli darajada kamaytirish qayta sug‘urta himoyasining raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Sug‘urtachining to‘lov qobiliyatini oshishida an‘anaviy qayta sug‘urta muhim rol qynasada, u faqat joriy yilning moliyaviy natijasini baholashga yordam beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtachi qayta sug‘urtalash bilan o‘zining uzoq muddatli rejalashtirish va moliyaviy holat risk menejmenti bilan bog‘liq muammolarini yecha olmaydi.

An‘anaviy va muqobil qayta sug‘urta shakllarini sug‘urtachining moliyasini boshqarish usuli deb hisoblash ham mumkin. Chunki qayta sug‘urtaning ikki varianti ham qayta sug‘urtachining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatining yuqori darajada bo‘lishini ta‘minlaydi. Muqobil qayta sug‘urta bir tomondan, sug‘urtachining to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomasi asosida qabul qilingan risk bilan doimo bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, sug‘urtachining moliyaviy holatini barqarorlashtirish va himoyalash bilan bog‘liq muammolarni o‘z vaqtida yechishga xizmat qiladi.

Har qanday yangi hodisalar kabi muqobil qayta sug‘urta ham ilmiy tahlilga muhtoj. Ushbu qayta sug‘urta turlarining iqtisodiy tabiatini, muqobil qayta sug‘urtaning shakl va turlarining klassifikatsiyasini, sug‘urta bozorida muqobil sug‘urta xizmati ko‘rsatuvchi subyektlarning faoliyatini huquqiy tartibga solish qoidalarini, muqobil qayta sug‘urta shartnomalarini tartibga soluvchi fuqaro – huquqiy qonunchilik tizimlarini aniqlashi lozim. Moliya, sug‘urta, bank sohalarida qo‘llaniluvchi atamalarining apparat tushunchalarini ishlab chiqish zarur.

Chet elda nashr qilingan turli xil manbalarda muqobil qayta sug‘urta tarkibiga turli xil sug‘urta xizmatlari spektorini kiritirishini ko‘rishimiz mumkin. Ba‘zi mualliflar muqobil deb, bir necha yil davomida, bir qancha

sug'urta turlari bo'yicha (multiline multi year polices) qayta sug'urta xizmati ko'rsatuvchi moliyaviy, keptiv qayta sug'urta turlarini nazarda tutadilar. Katastrofik qayta sug'urta uchun zarur bo'lgan qo'shimcha kapitalini jalb qilish natijasida qayta sug'urta majburiyatlari paydo bo'ladi. Bunday qayta sug'urta majburiyatlari maxsus obligatsiyalar chiqarish yo'li bilan uning xavfsizligi ta'minadi deb ishontiradi. Boshqa mualliflar muqobil qayta sug'urta, odatda, qayta sug'urtalash mumkin bo'lmagan risklarni sug'urtalaydi, deb tushuntiradilar. Muqobil qayta sug'urta shartnomalari o'ziga xos bo'lgan struktura va terminologiyaga ega bo'ladi. Sug'urta risklarini sug'urtachi va qayta sug'urtasi bo'lmagan uchunchi shaxs qabul qiladi deb ta'kidlaydilar. Uchunchi toifadagi mualliflar moliyaviy qayta sug'urta taklif qiluvchi xizmatlar turining ko'pligini inobatga olib, muqobil qayta sug'urta – riskni moliyalashtirish va qayta taqsimlash funksiyalarining kombinatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan qayta sug'urta turlarini birlashtirish natijasi yoki to'lanuvchi qayta sug'urta mukofotlarining qiymatini hozirgi zamon o'zgarishi natijasi deb fikr bildiradilar.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida, muqobil qayta sug'urtaga kengaytirilgan va qisqa tarif berishimiz mumkin. Keng ma'noda, muqobil qayta sug'urta – an'anaviy qayta sug'urtaga xos bo'lmagan faoliyat bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy va sug'urta risklarini qayta taqsimlash usullari yig'indisidir yoki, muqobil qayta sug'urta o'z-o'zini sug'urtalashni anglatuvchi keptiv qayta sug'urtani, o'zining xavfsizligini ta'minlash choralari va moliyaviy qayta sug'urtaning klassik shaklini o'z ichiga oladi. Tor ma'noda muqobil qayta sug'urta: uzoq muddatga (bir yildan ortiq) belgilangan sug'urta faoliyati bilan bo'lgan moliyaviy, sug'urta risklarini qayta taqsimlashda paydo bo'luvchi - sug'urtachi va qayta sug'urtalanuvchi o'rtasidagi munosabatni anglatuvchi moliyaviy qayta sug'urta.

Moliyaviy qayta sug'urtaning yuqorida belgilangan o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutgan holda, uning jahon sug'urta va qayta sug'urta bozorini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatishimiz mumkin:

- sug'urta tsiklining rivojlanishida yuz beruvchi salbiy tebranishlarni tartibga solish;

- sodir bo'lgan, lekin arz qilinmagan sug'urta hodisasi zararlarini boshqarish imkonini berish;

- odatda an'anaviy qayta sug'urta sug'urtalay olmaydigan sug'urta risklarini (riskning siyosiy, ekologik va boshqa turlari) qayta sug'urta qilish uchun zarur bo'lgan imkoniyat doirasini kengaytirish;

- sug'urtachi va qayta sug'urtachi o'rtasida uzoq muddatga mo'ljallangan moliyaviy munosabatlarni o'rnatish;

– sug'urta va qayta sug'urtaga qabul qilingan risklarni qayta taqsimlash uchun zarur bo'lmagan kapitalni shakllantirish uchun kerak bo'lgan ssuda kapitali bozoriga kirish imkoniyatini yaratish.

Muqobil yoki moliyaviy qayta sug'urta tor ma'noda quyidagi shakllarga ega:

1. Boshqarilayotgan jamg'arma asosida qayta sug'urta qilish;
2. Oldingi yillar zararlari portfelini qayta sug'urta qilish;
3. Aralash qayta sug'urta:

Boshqariladigan jamg'arma asosida qayta sug'urta sug'urtachining uzoq muddatli shartnomasi asosida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, ehtimolli kichik bo'lgan yirik zararlarni qayta sug'urta qoplamasi bilan ta'minlaydi. Natijada, yuzaga keluvchi zararlarni sug'urtachi vaqt bo'yicha qayta taqsimlanishini ta'minlab, zararlar boshqaruvini amalga oshiradi. Bu esa sug'urtachining alohida moliyaviy yildagi moliyaviy natijasiga yuzaga keluvchi yirik zararlarning ta'sirini mo'tadillashtiradi. Zararsiz yillarda, sug'urtachi jamg'armani moliyaviy qayta sug'urta shartnomasida kelishilgan qayta sug'urta mukofoti to'lovlari hisobidan shakllantiradi. Zarar ko'rilgan yilda, shakllantirilgan jamg'arma qayta sug'urta to'lovining asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Qo'shimcha ravishda, sug'urtachi jamg'arma mablag'i miqdoriga hisoblanuvchi sarmoya daromadini olishga, zarar miqdori yig'ilgan jamg'arma hajmidan oshadigan hollarda, zararining oshgan qismiga qo'shimcha qayta sug'urta qoplamasi olish huquqiga ega bo'ladi. Jamlangan zararlarning zaxira hajmidan oshgan qismi sug'urtachining majburiyati sifatida belgilanib, keyingi qayta sug'urta mukofotlari to'lovlari hisobidan hisob-kitob qilinadi.

Sug'urtachida moliyaviy qayta sug'urta shartnomasi bor yoki yo'q hollarda sug'urta hodisasini paydo qilgan yirik miqdordagi zararining natijasini taqqoslaymiz (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

**Boshqariladigan jamg'arma asosida qayta sug'urtalash**

Yillar	Kirish balansi	Mukofot	Zarar	jamg'arma	manfaat	Chiqish balansi
1-y	0	100,000	0	90000	5,000	95,000
2-y	95,000	100000	0	185,000	10000	195000
3-y	195,000	100000	400000	-105000	-5,250	-110250
4-y	-110,250	120000	0	-5000	-250	-5250
5-y	-5250	100000	0	84750	4237,5	88987,5
6-y	88987,5	100000	0	178987,5	9237,5	188225
Jami		620000	400000		+22975	

Keltirilgan jadvalda sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan yirik miqdordagi zarar sug'urtachi tomonidan, moliyaviy qayta sug'urta yordamida, 5 moliyaviy yillar oralig'ida sug'urtaning maxsus, balansdan tashqari hisob varag'ida hisobga olingan jamg'arma hisobidan qoplanilganligini ko'rishimiz mumkin.

Bunday qayta sug'urta qayta sug'urtachining moliyaviy faoliyati natijasini, doimiy vaqt mobaynida (bizning misolimizda 6 yil davomida) yetarlicha barqaror bo'lishiga yordam beradi. Bir tomondan, sug'urtachi uchun qulay bo'lgan yillarda sug'urtachining joriy davrda olgan foydasi to'langan qayta sug'urta mukofoti miqdoriga kamaysa, ikkinchi tomondan, unga noqulay (zararli yilda) davrda, shartnomada belgilangan limit miqdorida shakllantirilgan jamg'arma hisobidan, yuzaga kelgan zarar qoplanadi. Bundan tashqari, qayta sug'urtachi tomonidan berilgan qo'shimcha mablag' hisobidan yuzaga kelgan zararining belgilangan limitdan oshgan qismi ham qoplab beriladi. Shunday qilib, qayta sug'urtaning ushbu shaklining maqsadi – uzoq muddat davomida sug'urtachining moliyaviy faoliyati natijasini barqarorligini ta'minlashdir.

Oldingi yillar zararlari portfelining moliyaviy qayta sug'urtasi sug'urtachiga o'tgan yillar davomida sug'urta faoliyati bo'yicha yuzaga kelgan zararlarni qayta sug'urta qilish imkonini beradi. Qayta sug'urta mukofotining miqdori sug'urtaning alohida turi bo'yicha shakllantirilgan zararlar zaxirasining hozirgi qiymatiga, sug'urta hodisasi sodir bo'lgan, lekin ariza berilmagan zararlar zaxirasiga, zarar va zaxiralar bahosining o'sish qiymatlariga mos keladi. Bunday qayta sug'urta shakli sug'urtachiga qayta sug'urta shartnomasi tuzish yilida o'zining majburiyati hajmini kamaytirishga, to'lov qobiliyatini yaxshilashga, sug'urta operatsiyalarining zararlilik ko'rsatkichlarini kamaytirishga, o'zining kelajakdagi rivojlanish istiqbolini aniqlashga imkon beradi.

An'anaviy qayta sug'urta bilan moliyaviy qayta sug'urta konsepsiyalarini birgalikda olib borish natijasida aralash qayta sug'urta yuzaga keladi.

Moliyaviy qayta sug'urta shakllari an'anaviy sug'urta shakllariga xos bo'lgan apparat iboralar – «qayta sug'urta mukofoti», «qayta sug'urta javobgarligi, limiti», «zararlar»dan tashqari mutlaqo yangi bo'lgan “manfaat”, “jamg'arma krediti” kabi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi. Xulosa qilib aytganda, moliyaviy qayta sug'urta xizmati qayta sug'urta shartnomasi va kredit shartnomalariga xos bo'lgan belgilarini o'zida mujassamlashtirib, risklarni sug'urtalash va moliyaviy boshqarish vazifalarini bajaradi.

## **Nazorat savollari**

1. Qayta sug'urtaning asosiy iqtisodiy belgilarini, paydo bo'lish sabablarini aytib bering.
2. Nimaga qayta sug'urta riskni ikkilamchi tartibda taqsimlovchi deb ataladi.
3. Nonisbiy qayta sug'urta jamiyatlarining asosiy farq qiluvchi tomonlarini keltiring.
4. Qayta sug'urtaga ta'rif bering.
5. Qayta sug'urtaning muqobill shaklining paydo bo'lish sabablarini keltiring.
6. Muqobill qayta sug'urtaning asosiy belgilarini ayting.
7. Muqobill qayta sug'urtaning asosiy turlariga tavsif bering.
8. Jahon qayta sug'urta bozoriga sharh bering.
9. Moliyaviy qayta sug'urtaning jahon qayta sug'urta bozoridagi ahamiyatiga baho bering.
10. Qayta sug'urta bozori muammolari haqida gapirib bering.

## II BOB. QAYTA SUG‘URTANING SHAKLI VA TURLARI

### 2.1. Qayta sug‘urtaning shakllari va turlari, qayta sug‘urta shartnomalarida qo‘llaniluvchi asosiy tushunchalar

Qayta sug‘urta munosabatlarining klassik tarkibini quyidagi ko‘rinishda tasavvur mumkin.

Qayta sug‘urta shakli:

- fakultativ;
- obligator.

Qayta sug‘urta turi:

- nisbiy;
- nonisbiy.

“Qayta sug‘urta shakli” tushunchasi sug‘urtachi va qayta sug‘urtachi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni, sug‘urtaning alohida turi bo‘yicha tuzilgan shartnoma asosida berilgan va qabul qilingan risklarni, tomonlarning o‘zaro huquq va majburiyatlarini anglatsa, “qayta sug‘urta turi” tushunchasi sug‘urtachilarning majburiyatlar yuzasidan o‘zaro hisob-kitob olib borish texnikasining o‘ziga xos xususiyatlarini, qayta sug‘urta uchun berilgan risk ulushlarini, qayta sug‘urta mukofotini to‘lash qoidalarini, shartnoma bo‘yicha yuzaga kelgan sug‘urta hodisasi zararlarini qayta sug‘urtachi tomonidan qoplash tartiblarini belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan qayta sug‘urta shakli tarkibiga qayta sug‘urtaning yangi shakli bo‘lgan – muqobill qayta sug‘urtani kiritmaslik, berilgan ta‘rifni to‘liqsizlikka olib kelishi mumkin. Muqobill qayta sug‘urta shaklini kiritgan xolda, qayta sug‘urta munosabatlarining hozirgi zamon tarkibini quyidagicha ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin.

Qayta sug‘urta turi:

- klassik;
- moliyaviy qayta sug‘urta shakli;
- fakul‘tativ;
- obligator qayta sug‘urtaning ko‘rinishi;
- nisbiy qayta sug‘urta;
- nonisbiy qayta sug‘urtaning kichik ko‘rinishi;

- Kvotali - eksedent summasi;
- Eksedent zarari – zararlilik eksedenti.

Qayta sug'urtada qo'llaniluvchi asosiy tushunchalar. Qayta sug'urta munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini qayta sug'urtalashda foydalaniluvchi maxsus atamalar ko'rsatib beradi.

Maxsus atamalarning asosiylari quyidagilardan iborat.

**Qayta sug'urta mukofoti (reinsurance premium)** – sug'urtachi – qayta sug'urtalanuvchi tomonidan, qayta sug'urta shartnomasiga muvofiq qabul qilingan sug'urta majburiyati uchun qayta sug'urtachiga to'lanuvchi mukofot.

Nonisbiy qayta sug'urta shartnomasida qayta sug'urta mukofoti, to'lanishi lozim bo'lgan brutto qayta sug'urta mukofoti va qayta sug'urtachi tomonidan sug'urtachiga to'lanuvchi qayta sug'urta komissiyasi o'rtasidagi farqqa teng bo'ladi. Nonisbiy qayta sug'urta shartnomalarda qayta sug'urta mukofoti, qayta sug'urtachi tomonidan olingan qayta sug'urta hajmiga, sug'urta turiga, qayta sug'urtachining anderayting qoidasiga, o'xshash obyektlarining sug'urtalash natijasining zararliligiga va boshqa ta'sir qiluvchi omillarga bog'liq holda aniqlanadi.

Nonisbiy obligator qayta sug'urta shartnomalarda depozit mukofoti (deposit premium), tiklanish mukofotlari (reinstatement premium) ham qo'llaniladi. Depozit mukofoti sug'urtachi tomonidan qayta sug'urta shartnomasini tuzishida qayta sug'urta mukofotining minimal miqdorida belgilab, to'lanadi. Shartnoma muddati tugash yilida, haqiqatda to'lanishi lozim bo'lgan qayta sug'urta mukofoti miqdorini aniqlash uchun qayta sug'urta mukofoti stavkasi sug'urtachi tomonidan olingan sug'urta mukofotiga ko'paytirilib, ko'paytma natijasidan depozit mukofoti ayriladi.

Agar haqiqatda to'lanishi lozim bo'lgan mukofot miqdori depozit mukofoti miqdoridan kam bo'lsa, qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Tiklanish mukofoti nonisbiy qayta sug'urta shartnomalarida qo'llaniladi. Ba'zi hollarda yuzaga kelgan zarar miqdori qayta sug'urta javobgarligi limiti doirasidan oshishi mumkin. Bunday hollarda zarar miqdorining qayta sug'urta javobgarligi limitidan oshgan qismini qoplash uchun qayta sug'urtachi tomonidan qo'shimcha qayta sug'urta javobgarligi limiti berishi mumkin. Sug'urtachi qo'shimcha qayta sug'urta javobgarligi limiti uchun qayta sug'urtachiga tiklanish mukofoti to'laydi. Qo'shimcha qayta sug'urta javobgarligi limiti va tiklanish mukofotlari miqdori qayta sug'urta shartnomasida oldindan kelishiladi.

Bunday imkoniyat sug'urtachiga qayta sug'urta shartnomasi tuzish vaqtida o'rnatiladi. Odatda, sug'urtachiga 2 yoki 3 marta qayta sug'urta

limitini tiklash imkoniyati beriladi. Qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha to'liq hisob-kitob qilingunga qadar, tiklanish mukofoti depozit mukofoti miqdoridan ko'p bo'lmagan miqdorda to'lanishi lozim.

**Qayta sug'urta komissiyasi (reinsurance commission)** – qayta sug'urta shartnomasiga muvofiq, qayta sug'urtachi tomonidan sug'urtachiga qat'iy belgilangan yoki brutto-qayta sug'urta mukofotiga nisbatan foyizda belgilangan miqdorda to'lanilishi lozim bo'lgan pul mablag'i. Qayta sug'urta komissiyasi sug'urtachining to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasini tuzish, soliq va yig'implarni to'lash, sug'urta biznesini olib borish bilan bog'liq ma'muriy xarajatlarini qoplash uchun sarf qilinadi. Hozirgi zamon qayta sug'urta konsesiyasida qayta sug'urta komissiyasi qayta sug'urta qiymatini hisoblashda ko'pchilik hollarda bahoni shakllantiruvchi unsur vazifasini bajarmoqda. Qayta sug'urta komissiyasi quyidagi ko'rinishlarga ega.

Qat'iy belgilangan qayta sug'urta komissiyasi qayta sug'urtachi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachiga to'lanadi. Qayta sug'urta shartnomasida qayta sug'urta komissiyasi foyizda, kelishilgan holda belgilanadi. Qayta sug'urta komissiyasining mutlaq miqdorini topish uchun komissiya foyizini qayta sug'urta mukofoti miqdoriga ko'paytiriladi. Foydadan hisoblanuvchi qayta sug'urta komissiyasi sug'urta shartnomasining yil yakuni bo'yicha hisoblanadi. Komissiyani hisoblashda qayta sug'urta to'lovi qayta sug'urta mukofoti va qayta sug'urtachi xarajatlari inobatga olinadi. Komissiyaning haqiqatdagi miqdorini aniqlash uchun maxsus shkaladan foydalaniladi. Shkalada o'rnatilgan qayta sug'urta komissiyasi foyizi qayta sug'urta mukofotiga nisbatan aniqlanadi. Qayta sug'urta operatsiyalarining zararlilik darajasining o'sishi qayta sug'urta komissiyasining miqdorini kamayishiga olib keladi. Ba'zi hollarda, zararlilik darajasi yuqori sug'urta operatsiyalari bo'yicha manfiy qayta sug'urta komissiyasi ham hisoblanishi mumkin.

**Qayta sug'urtachi (reinsure)** – qayta sug'urtada riskni qabul qiluvchi maxsus sug'urta tashkiloti. Milliy qonunchilik ruxsat etgan hollarda, qayta sug'urtachi tashkilotlarning to'g'ridan-to'g'ri sug'urta operatsiyalari bilan ham shug'ullanishi mumkin.

Qayta sug'urtalanuvchi (reinsured) – to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha riskning ma'lum ulushini qayta sug'urtachiga beruvchi sug'urta tashkiloti.

**Retrotsessiya (retrocession)** – qayta sug'urtachi o'zining qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha olgan majburiyatlarini qisman yoki to'liqligicha boshqa qayta sug'urtachiga berish to'g'risidagi qayta sug'urta shartnomasi.



Sedent chegrimalari: prioritet (deductible) nonisbiy qayta sug'urta shartnomasida qayta sug'urtachi tomonidan qoplanilmaydigan, to'g'ridanto'g'ri sug'urtachi majburiyatida qoluvchi risk bo'yicha yuzaga kelgan zararlar miqdori. Nisbiy qayta sug'urta shartnomalarida chegirma: kvotali qayta sug'urta shartnomasida foyizda o'rnatilgan limit chegarasida; ekssedent summasi asosidagi qayta sug'urtada – liniya miqdorida aniqlanadi.

**Qayta sug'urta limiti (reinsurance limit)** qayta sug'urtachining qayta sug'urta to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha olgan maksimal majburiyati summasi. Qayta sug'urtadagi mazkur tushuncha to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasidagi «sug'urta summasi» tushunchasi ma'nosi bilan mos kelishi mumkin. Nonisbiy qayta sug'urta shartnomalarida qayta sug'urta limiti-sodir bo'lgan sug'urta hodisasi keltirgan zararining sug'urtachi prioritetidan oshib ketgan hollarda, maksimal darajada to'lab berishi mumkin bo'lgan pul mablag'i. Ekssedent summasi asosidagi nisbiy qayta sug'urta shartnomalarida qayta sug'urta limiti-sug'urtachiga taqdim qilingan qayta sug'urta sig'imidir.

**Chiziq(line) – ekssedent** summasi asosidagi nisbiy qayta sug'urta shartnomalarida, har bir risk bo'yicha zararlarni qoplash yuzasidan berilgan chegrimalar. Chegrimalarga nisbatan marta hisobida belgilangan chiziqlar soni qayta sug'urta sig'imini yoki shartnoma bo'yicha qayta sug'urta limitini belgilaydi.

**Qayta sug'urta sig'imi (reinsurance capacity)** – qayta sug'urtachining yoki sug'urtachining riskni qayta sug'urtalash uchun zarur bo'lgan moliyaviy imkoniyatlarini baholash. «Sig'im» tushunchasi qayta sug'urtachining kapitali va uning shaxsiy mablag'larining hosilasidir. Sig'im qayta sug'urta shartnomalarida qayta sug'urtachining zarardagi maksimal to'lab berishi mumkin bo'lgan ulushi chegaralarini ko'rsatadi. Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan, sig'im qayta sug'urta bozorining to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha risklarni qayta sug'urtaga qabul qilish imkoniyatlari yig'indisini bildiradi.

**Bordero (bordereou) -bordero mukofoti, bordero zarari.**

Nisbiy qayta sug'urta shartnomalarida bordero mukofoti – qayta sug'urta qilinuvchi sug'urta shartnomalari, ularning sug'urta summalari, qayta sug'urta mukofoti, to'lanishi rejalashtirilgan qayta sug'urta komissiyasi, olingan sug'urta mukofoti va boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta sug'urtachiga chorak davr uchun sug'urtachi tomonidan taqdim qilishi zararlar keltirgan sug'urta shartnomalari, zararlar yuzaga kelgan sana, zararlar yuzaga kelish sababi, miqdori, qayta sug'urtachining zarardagi

ulushlari to'g'risidagi ma'lumotlarni zararlar borderosi o'z ichiga oladi. Borderoning aniq shakli qayta sug'urta shartnomasini imzolashda, sug'urtachi va qayta sug'urtachi o'rtasida o'zaro kelishiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Qayta sug'urta shakllari va turlarini sanab bering.
2. Qayta sug'urta mukofoti (reinsurance premium) va qayta sug'urta komissiyasi (reinsurance commission)larini izohlang.
3. Qayta sug'urtachi (reinsure) va retrotsessiya (retrocession) iboralarining ma'nosini tushuntirib bering.
4. Qayta sug'urta limiti (reinsurance limit), chiziq(line)-ekssedent, qayta sug'urta sig'imlarining (reinsurance capacity) mohiyati nimadan iborat.
5. Qanday qayta sug'urta shakllari mavjud?
6. Har bir qayta sug'urta shakllarining ishlatish shartlarini tushuntirib bering.
7. Qayta sug'urtada "Sedent" tushunchasi nimani anglatadi?
8. "Bordero mukofoti" nimani anglatadi?
9. "Bordero zarari" nimani anglatadi.
10. Qayta sug'urtachi va qayta sug'urtalanuvchi kimlar?

### **2.2. Fakultativ qayta sug'urta**

Fakultativ qayta sug'urta shartnomalarida sug'urtachi va qayta sug'urtachi Har bir sug'urta risklarini alohida holat sifatida ko'rib chiqadilar, riskni qayta sug'urtaga berish va qabul qilish yuzasidan qarorlarni alohida qabul qilinadilar. To'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi o'zining sug'urta shartnomalaridagi har bir riskni qaysi qayta sug'urtachiga qayta sug'urta uchun berish to'g'risidagi qarorni o'zi qabul qiladi. O'z navbatida, qayta sug'urtachi ham, riskni qayta sug'urta qilish to'g'risidagi to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining taklifni tahlil qilib, uni qayta sug'urtaga qabul qilish-qilmaslik haqidagi qarorini mustaqil qabul qiladi. Albatta, qayta sug'urtachi o'zi qayta sug'urtaga qabul qilayotgan riskni baholashda, riskning qancha qismini qayta sug'urtalash lozimligiga, qancha miqdorda qayta sug'urta sig'imi bilan ta'minlash zarurligiga va qanaqa shartnomalarni (qayta sug'urtaning turi mukofoti, alohida shartlari) qayta sug'urtalash lozimligiga e'tibor beradi. Fakultativ qayta sug'urta tomonlar kelishuvini belgilovchi qayta sug'urtaning mustaqil shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

To'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining fakultativ qayta sug'urtalash to'g'risidagi taklifida qayta sug'urtachiga riskni to'g'ri baholash uchun

zarur bo'lgan, risk to'g'risidagi barcha ma'lumot bo'lishi zarur. Odatda to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi tomonidan qayta sug'urtachiga berilgan ma'lumotda quyidagi axborotlar bo'ladi:

- sug'urtachining ism-sharifi va manzili;
- sug'urta turi;
- qayta sug'urta turlari: nisbiy va nonisbiy;
- riskni joylashgan joyi, (mamlakat, manzili)
- manfaatdor shaxs;
- sug'urta shartlari, sug'urtalangan xavf (muhimlaridan qaysilari to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasiga kiritilgan, qaysilari shartnoma tarkibiga kiritilmagani yoki shartnomaning standart shartlarining o'zgarishi sanab o'tilishi zarur);
  - jami sug'urta summasi (sug'urtalash valutasida maksimal mumkin bo'lgan zarar summasi, mukofot foyizi);
  - sug'urtachi franshizasi;
  - qayta sug'urta mukofoti, qayta sug'urta komissiyasi va boshqa xarajatlar;
    - fakultativ qayta sug'urtaning boshlanish va tugash sanasi;
    - taklif qilingan qayta sug'urta ulushi;
    - zararlarning oldini olish imkoniyatlari va chora-tadbirlari;
    - syurver hisobotini taqdim qilish imkoniyatlari;
    - qayta sug'urtaga berilayotgan sug'urta manfaati, sug'urta obyekti to'g'risidagi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalarining statistikasi (imkoniyat doirasida, kamida oxirgi 5 yil mobaynida);
    - amaldagi boshqa qayta sug'urta shartnomalari bilan birlashtirish imkoniyatlari, qayta sug'urtalanayotgan fakultativ risklarga tatbiq qilinmoqchi bo'lgan qayta sug'urta qoplamasi ko'rsatilishi lozim;
    - sug'urtachining to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha shaxsiy chegirmaning ulushi va miqdori;
    - to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining nomi va agar bo'lsa, sug'urtachilarni ham ko'rsatish.

Turli xil sug'urta tarmoqlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun yuqoridagi ma'lumotlar yig'indisi misol tariqasida keltirildi.

Qayta sug'urtachilar yuqorida keltirilgan ma'lumotlar yig'indisidan qayta sug'urta shartnomasini tuzishda taklif sifatida foydalanishi mumkin. Qayta sug'urtachi olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, o'rgangandan keyin, qancha ulushda (qat'iy belgilangan miqdorda yoki foyizda) fakultativ qayta sug'urtaga olishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachiga xabar qiladi. Bunday takliflar va taklifni qabul qilish (aksept) qayta sug'urta

shartnomasi shakllari uchun belgilangan, amaldagi qonunchilik talablariga mos kelishi lozim. yo'zishmalar faks orqali jo'natilishi, qayta sug'urtachi to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining qayta sug'urta ulushi to'g'risidagi va shu kabi boshqa takliflariga rozi bo'lsa, olgan taklifiga imzo qo'ygan holda ma'lumotni qayta jo'natadi.

Qayta sug'urtachi tomonidan riskni qayta sug'urtaga qabul qilish to'g'risidagi taklifni rad etish telefon, teleks, faks - tez xabar berish vositalari bilan ma'lum qilinishi mumkin. Qayta sug'urtachi taklifga rozi bo'lmagan hollarda uni qanoatlantiruvchi qayta sug'urta shartlarini taklif qilib, ma'lumot almashishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi tomonidan yuborilgan qayta sug'urtalashga berish to'g'risidagi taklifga qayta sug'urtachining javob bermasligi, taklif qabul qilinganligini bildirmaydi.

Fakultativ qayta sug'urta shartnomasi qayta sug'urtachi tomonidan rozilik bildirilgan daqiqadan kuchga kiradi. To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasining shartlariga muhim o'zgarishlar (sug'urta summasi, mukofot stavkasi, sug'urtalangan xavflar hajmi) kiritishga faqat qayta sug'urtachi rozi bo'lgan hollarda ruxsat beriladi.

Talab qilingan ma'lumotlar nuqtayi nazaridan fakultativ qayta sug'urta to'g'ridan-to'g'ri sug'urtaga o'xshashi mumkin. Yirik professional qayta sug'urta kompaniyalarida fakultativ qayta sug'urta bo'limlari bo'lib, bu bo'limda turli tarmoq mutaxassislaridan taklif qilingan xodimlar risklarni baholaydilar.

Fakultativ qayta sug'urtada qayta sug'urtachining vazifasi to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish bilan cheklanmaydi. U ko'p hollarda to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachiga risk ko'lamini baholashda, sug'urta shartnomasi shartlarini aniqlashda, zararni oldini olish chora-tadbirlarini belgilashda, maslahatga muhtoj bo'lganda yordam ko'rsatadi. Sug'urtachi va qayta sug'urtachi birgalikda, risk joylashgan joyda - milliy hududda yoki chet elda nazorat ishlarini olib boradi.

### **Nazorat savollari**

1. Fakultativ qayta sug'urtaning mohiyatini tushuntiring.
2. Fakultativ qayta sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Fakultativ qayta sug'urtada sug'urta mukofotining bo'linish tartibini tushuntirib bering.
4. Fakultativ qayta sug'urtada zararlarni qoplash tartibini tushuntiring.

5. Fakultativ qayta sug'urta shartnomasining o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat?

6. Fakultativ qayta sug'urtada sug'urtachining vazifalari nimalardan iborat?

7. Fakultativ qayta sug'urtada qayta sug'urtachining majburiyatlari nimalardan iborat?

8. Fakultativ qayta sug'urtada sug'urta javobgarligi deganda nimani tushunasiz?

9. Fakultativ qayta sug'urtada sug'urta sig'imi deganda nimani tushunasiz?

10. Fakultativ qayta sug'urta shartnomalariga doir misol keltiring.

### **2.3. Obligatör qayta sug'urtalash**

Obligatör qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan sug'urtachi qayta sug'urtachiga kelishilgan hududda aniq belgilangan risklar bo'yicha tuzilgan barcha to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalarini qayta sug'urtaga beradi (baxtsiz hodisaga qarshi O'zbekiston Respublikasida imzolangan sug'urta shartnomalari yoki yong'inga qarshi Rossiyada qilingan mol-mulk sug'urtalari). To'ridan-to'g'ri sug'urtachi tomonidan kelishilgan shartlarda tuzilgan barcha sug'urta shartnomalarini qayta sug'urtachi so'zsiz qayta sug'urtaga qabul qilishi shart. To'ridan-to'g'ri sug'urtachi qayta sug'urtachi bilan kelishilgan holda, o'z sohasini yaxshi biluvchi anderayterlarni jalb qilish, sug'urta shartnomalarini, sug'urta mukofotini, qayta sug'urtalash rejalashtirilgan sug'urta shartnomasini boshqarish chora-tadbirlarini belgilash bo'yicha qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Agar sedent qayta sug'urtachi manfaatlariga zarar keltiruvchi harakatlarni amalga oshirsa, qayta sug'urtachi sug'urtachining ushbu qarorini qo'llab-quvvatlamaydi. Shunday qilib, qayta sug'urtachining to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi faoliyatini kuzatish majburiyati sug'urtachining o'z biznesini boshqarish huquqlari bilan yaqindan bog'langan.

Obligatörli qayta sug'urtalash xalqaro amaliyotda ikki xil ma'noni bildiradi:

1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valuta chiqib ketishining oldini oladi;

2) sug'urta kompaniyasi (tsedent) ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta

sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi. Fakultativ-obligator shartnomasi – sedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Obligatory qayta sug'urta shartnomalarini imzolanishida tomonlar yuzaga keluvchi zararlarni yoki qayta sug'urtalashga qabul qilingan risklarni qayta sug'urta qoplamasi bilan ta'minlash shartlarini kelishib olishlari lozim. Agar shartnoma «zararlar paydo bo'lgan yil» shartida imzolansa, sug'urta hodisasi ro'y berganligi to'g'risida ariza berilgan yoki berilmaganligidan qat'iy nazar, yuzaga kelgan barcha zararlar bo'yicha qayta sug'urtachida qayta sug'urta to'lovlarini amalga oshirish majburiyatlari paydo bo'ladi. Masalan, sug'urta shartnomasi 2004 yilning 1 yanvarida, bir yil muddatga imzolangan. 2003 yilning iyun oyida imzolangan to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha 2004 yilning 3 yanvarida zarar yuzaga keldi. Qayta sug'urtachida ushbu zararni qoplash yuzasidan qayta sug'urta majburiyati paydo bo'ladi. Agar sug'urta shartnomasi 2004 yilning 5 sentyabrida imzolaniib, ushbu shartnoma bo'yicha zarar 2005 yilning 15 yanvarida paydo bo'lsa, bunday zararlarni qoplash bo'yicha qayta sug'urtachida hech qanday majburiyat paydo bo'lmaydi.

Agarda qayta sug'urta shartnomasi «kalendar yili» shartlarida imzolansa, qayta sug'urta shartnomasi amaldagi muddatda imzolangan barcha to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha yuzaga kelgan zararlar, haqiqatda qaysi sanada ro'y berilganligidan qat'iy nazar, qayta sug'urtachi tomonidan qoplanib berilishi zarur.

Obligatory qayta sug'urta shartnomalari odatda bir yil muddatga tuziladi. Agar obligatory nisbiy qayta sug'urta shartnomaning tugash muddatiga 3 oy qolganda, tomonlar o'zaro, bir-biriga shartnoma tugaganligi to'g'risida ma'lum qilmasalar, shartnomaning amal qilinish muddati avtomatik ravishda keyingi kalendar yili uchun o'z kuchini saqlab qoladi. Nonisbiy obligatory qayta sug'urta shartnomalari uchun yuqorida keltirilgan qoida tatbiq qilinmaydi. Nonisbiy obligatory qayta sug'urta shartnomasining amal qilish muddatini keyingi kalendar yiliga uzaytirish uchun tomonlar bu haqida kelishib olishlari lozim.

Obligatory qayta sug'urta shartnomasining amal qilish muddatidan oldin tugatilishi faqat shartnomada belgilangan maxsus shartlar asosida amalga oshiriladi. Bunday maxsus shartlarga, odatda, quyidagilar kiradi:

– de-yure va de-fakto shartnomalarini bajarish imkoniyati bo'lmasa;

– bir tomonning o‘z qarzlarini bankrotlik yoki likvidatsiya munosabati bilan yoki operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat beruvchi vakolatni, litsenziyani qaytarib olinganlik bilan bog‘liq bo‘lgan holda to‘lash imkoniyati yo‘qolsa;

– ikkinchi tomon barcha to‘langan kapitalni to‘liqligicha yoki qisman yo‘qotsa;

– ikkinchi tomon boshqa yuridik shaxs bilan qo‘shilsa yoki ikkinchi tomon ustidan nazorat boshqa yuridik shaxs yoki davlat ixtiyoriga o‘tsa;

– boshqa tomon ro‘yxatdan o‘tgan davlatda e‘lon qilingan yoki e‘lon qilinmagan urush harakatlari olib borilsa yoki qisman yoki to‘liqligicha boshqa davlat tomonidan bosib olinsa.

Nisbiy qayta sug‘urta (proportional reinsurance) – qayta sug‘urta shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar miqdorini aniqlashning keng tarqalgan usulidir. Nisbiy qayta sug‘urta shartnomasini imzolashda tomonlarning qayta sug‘urta mukofotini to‘lash, zararni qoplash majburiyatlari kelishilgan holda, nisbatda (foizda) belgilanadi. U ikkiga - nisbiy kvotali qayta sug‘urta va eksendent summasi asosida qayta sug‘urta turlariga bo‘linadi.

### **Nazorat savollari**

1. Obligat qayta sug‘urta shaklining qisqacha ta‘riflang.

2. Obligat qayta sug‘urta va fakultativ qayta sug‘urta shakllarining farqlari nimadan iborat?

3. Obligat qayta sug‘urta shartnomalarining bekor qilinishi nimalarga asoslanadi?

4. Obligat qayta sug‘urta shaklining yutuq va kamchiliklari nimalardan iborat?

5. Obligat qayta sug‘urta turida sug‘urta mukofotlarini hisoblash tartibini tushuntirib bering.

6. Obligat sug‘urta shartnomalarini tuzishning o‘ziga xosligi nimadako‘rinadi?

7. Obligat sug‘urta shartnomalarida sug‘urtachi va qayta sug‘urtachining majburiyatlari nimalardan iborat?

8. Obligat qayta sug‘urta shartnomalarida sug‘urtachining majburiyatlari nimalardan iborat?

9. Obligat qayta sug‘urta shartnomalarini bajarishda mavjud muammolar nimalardan iborat?

10. Obligat qayta sug‘urtaga misol keltiring.

## **III BOB. NISBIY QAYTA SUG'URTA MEXANIZMI**

### **3.1. Nisbiy qayta sug'urta va uning tarkibi**

Sug'urta munosabatlarida nisbiy qayta sug'urta turi muhim o'rin egallaydi. Proporsional qayta sug'urtalash tarixan kelib chiqishiga ko'ra XIX asrda riskni qayta taqsimlash shaklining umumiy turi sifatida yaratilgan.

Bu nuqta nazardan proporsional qayta sug'urtalash yana an'anaviy qayta sug'urtalash nomini ham oladi. Qayta sug'urtachi shuni ko'rib o'tadiki, unda qayta sug'urtalovchining riskini qoplash uchun tsedentning shaxsan o'zining qatnashuvi bilan yuzaga keladigan shartnoma.

Nisbiy qayta sug'urta qilishning asosiy mohiyati qayta sug'urtalovchi kompaniyaning riskni taqsimlashdagi ulushi sug'urta kompaniyasi aniqlagan nisbat asosida oldindan aniqlanadi. Ushbu nisbatga qarab, qayta sug'urtalash mukofoti va sug'urta kompaniyasining tegishli ulushi aniqlanadi. Nisbiy qayta sug'urta qilishning prinsipi "qayta sug'urtalovchi tsedentning riskini bo'ladi" degan fikrdan iborat.

Sug'urta ishi amaliyotida nisbiy qayta sug'urtalashning quyidagi shakllari mavjud:

- \* kvotali qayta sug'urta qilish;
- \* ekssedent qayta sug'urta qilish;
- \* kvotali-ekssedent qayta sug'urta qilish.

Qayta sug'urtalash asosida shartnoma yotadi. Bunda bir taraf tsedent – ya'ni to'liq yoki qisman sug'urta riskini, ikkinchi tomon qayta sug'urtalovchisiga beradi. Qayta sug'urtalash shartnomasida qayta sug'urtalovchining zararni qoplash holati ham xuddi shunday munosabatda amalga oshiriladi. Umumiy shaklda proporsional qayta sug'urtalash qayta sug'urtalovchining tsedent riskini bo'lish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Sug'urta ishi faoliyatida bir qancha proporsional qayta sug'urtalash shartnomalari mavjud. Bular: kvotali, ekssedentli, kvota-ekssedentli.

Xalqaro amaliyotda nisbiy qayta sug'urta mexanizmidan keng foydalaniladi. O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlari



tomonidan mazkur sug'urta mexanizmidan foydalanilsada, u talab darajasida rivojlanmagan. O'z navbatida nisbiy qayta sug'urta ikki kichik turdan tarkib topgan. Ular – kvotali qayta sug'urta va ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turlaridir.

### **Kvotali qayta sug'urta (quota share reinsurance)**

Kvotali qayta sug'urtalash shartnomasida tsedent qayta sug'urtalovchiga riskning berilgan turi bo'yicha hamma ulushni berishga, qayta sug'urtalovchi esa bu ulushni qabul qilib olishga majburdir. Odatda qayta sug'urtalash ulushi sug'urta summasiga nisbatan % (foizda) hisoblanadi. Ba'zida qayta sug'urtalovchining qatnashishi aniq bir summa (kvota) bilan belgilangan bo'ladi. Bundan tashqari bunday qayta sug'urtalash shartnomalarida qayta sug'urtalovchining xohishiga ko'ra riskning yuqori chegarasi (limit) belgilanadi. Kvotali qayta sug'urtalash shartnomalari oddiy va tsedent uchun qulaydir. Tsedent qayta sug'urtalovchiga ma'lum bir muddatda kelib tushgan sug'urta badallaridan o'zining hisobiga riskni o'tkazgani uchun, komission mukofotni olib, qolgan holda proporsional ravishda o'tkazib beradi. Bu holatlar avvaldan, shartnomani tuzishda ko'rsatilgan bo'ladi. Shu narsani hisobga olish kerakki, kvotali qayta sug'urtalash shartnomasi boshqa qayta sug'urtalash shartnomasidan farqi ravishda tsedentning mukofot puli qolganlaridan ko'proq bo'ladi. Bu qayta sug'urtalovchi uchun yuqori darajadagi sug'urta badallari kelib tushishini ta'minlaydi. Tahliliy xususiyatda zararlarni boshqarish olib boriladi. Qayta sug'urtalovchi tsedentdan olgan ulushga asos ravishda qo'yilmaning ham ma'lum qismini berib boradi. Odatda qayta sug'urtalovchi tsedentni sug'urtalovchilar bilan bo'ladigan xarajatlarda qatnashtiradi. Kvotali qayta sug'urtalashda ko'rsatilgan shartlarga qaramasdan u belgilangan maqsadlarga erisholmaydi. Kvotali qayta sug'urtalash shundayki, u shartnoma bo'yicha riskni kamaytiradi va tsedentning sug'urta portfelini qoplash uchun ketadigan aralashuvini ham kamaytiradi. Buni misolda ko'rib chiqamiz.

Sug'urtalovchi portfelida 400, 625, 800 ming so'mlik sug'urta riski mavjud bo'lib sug'urtalovchining riskni qoplashdagi qatnashishuvining maksimal darajasi 500 ming so'm deb belgilanadi. Sug'urta portfelini 20% li kvotasi qayta sug'urtalashga berilgan, shu tufayli uchchala risk bo'yicha qayta sug'urtalovchi 80, 125, 160 ming so'm oldi. Tsedentni riskni qoplashdagi shaxsiy aralashuvi 320 (400-80) ming so'm, 500 (625-125) ming so'm, 640 (800-160) ming so'm. Berilgan misolga ko'ra, birinchi risk guruhida risk qayta sug'urtalangani ortiqcha bo'lib ko'rindi, chunki sug'urtaning boshlang'ich qiymati 400 ming so'm. Sedent 500

ming so‘mgacha bo‘lgan zararni qoplash imkoniyatiga ega. Uchinchi guruhdagi riskda esa qayta sug‘urtalash amalga oshirilgandan keyin tsedentning shaxsiy aralashuvidagi limitdan ham oshib ketadi. Faqatgina 2-guruhdagi sug‘urta riski sug‘urtalash summasini 500 minggaacha bo‘lgan summaga erishishga yordam beradi.

Shunday qilib, qayta sug‘urtaga beriluvchi har bir riskda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta su‘mmasining miqdoridan qat‘iy nazar, qayta sug‘urtachining qatnashish ulushi aniqlanadi. Bundan tashqari, sug‘urtachi va qayta sug‘urtachi o‘rtasida riskni nisbiy bo‘linish chegaralarini belgilovchi qayta sug‘urta limitini belgilab beradi.

Ushbu qayta sug‘urta turini yanada to‘liq tushunish uchun yana bitta misol keltiramiz. Masalan, 2,0 mln so‘mlik qayta sug‘urta limiti me‘yorida qayta sug‘urtachining sug‘urta qoplamasidagi javobgarlik ulushi 30% ni tashkil qilishi belgilangan. Sug‘urta summasi 1,5 mln. so‘mni tashkil qilsa, qayta sug‘urta sig‘imining miqdori 450,0 mln. so‘mni tashkil qiladi. Bunda riskning 70% sug‘urtachining shaxsiy chegirmasidan ushlab qolinadi. Qayta sug‘urtada riskning bunday taqsimlanishi tomonlar majburiyatlari 70/30 nisbiy proporsiyada bo‘linadi deb ataladi.

Qayta sug‘urta mukofotini hisoblash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomasi asosida olingan mukofotni qayta sug‘urtachining riskda ishtirok etish ulushi foyiziga ko‘paytiriladi. Masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta mukofoti 7,0 mln so‘mni tashkil qiladi. Munosib ravishda qayta sug‘urta mukofoti 2,1 mln so‘mni tashkil qiladi. Agar qayta sug‘urta shartnomasida qayta sug‘urta komissiyasi nazarda tutilgan bo‘lsa, qayta sug‘urta mukofoti qayta sug‘urta komissiyasi miqdoriga kamaytiriladi.

Zarar yuzaga kelgan hollarda to‘lov bo‘yicha majburiyatlar qayta sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan ulushlarga, nisbiy ravishda tomonlar o‘rtasida taqsimlanadi. Masalan, yuqorida keltirilgan masalada sug‘urta shartnomasi bo‘yicha zarar 2,0 mln so‘mni tashkil qilsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtachining zarardagi ulushi 1,4 mln so‘mni, qayta sug‘urtachiniki esa 0,6 mln so‘mni tashkil qiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Kvotali qayta sug‘urtaning yutuqlarini tushuntirib bering.
2. Kvotali qayta sug‘urta mexanizmiga izoh bering.
3. Kvotali qayta sug‘urta nimaga nisbiy qayta sug‘urta tarkibiga kiritiladi?

4. Kvtali qayta sug'urta turining kamchilik tomonlari nimalardan iborat.
5. Kvtali qayta sug'urtada qo'llaniluvchi asosiy iboralar haqida gapiring!
6. Kvtali qayta sug'urtada sug'urta qoplamalarini to'lash tartibini tushuntiring.
7. Kvtali qayta sug'urtada sug'urta mukofotlarini taqsimlash tartibini tushuntirib bering.
8. Kvtali qayta sug'urtada sug'urtachining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
9. Kvtali qayta sug'urtada qayta sug'urtachining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
10. Kvtali qayta sug'urta shartnomalarini tuzish shartlarini tushuntirib bering.

### **3.2. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta (surplus reinsurance)**

Ekssedentli qayta sug'urtalash kvotali qayta sug'urtalashdan bir qancha tomonlari bilan farqlanadi. Ekssedentli qayta sug'urtalash sug'urta portfelini tsedentning riskni qoplash uchun shaxsiy aralashuvi bor holatdagi harakatidir. Ekssedentli qayta sug'urtalash shartnomasini tuzishdan oldin tomonlar riskni shaxsiy qoplashi mumkin bo'lgan maksimal chegarani belgilab oladilar. Bu esa statistik tahlil orqali aniqlanadi. Sug'urtalovchi qatnashuvining maksimal darajasi ekssedent deb ataladi. Sug'urta summalarini berilgan daraja bo'yicha oshirish va sug'urta riskini sug'urtachi tomonidan qoplanishi bir yoki bir necha qayta sug'urtalovchiga beriladi. Bu ekssedentning maqsadi deb ataladi. Ekssedentli qayta sug'urtalash shartnomasida qayta sug'urtalovchi qoplashi kerak bo'lgan riskning maksimal darajasi belgilab o'tiladi. Qayta sug'urtalovchining riskni qoplashdagi maksimal aralashuvi tsedentni qatnashish darajasi bo'ladi. Agar qayta sug'urtachining maksimum aralashuvi tsedent aralashuvining 9 darajasi bo'lsa, bu maksima 1 9 ta qayta sug'urtalovchi demakdir. Ekssedent qayta sug'urtani tuzishda sug'urtalovchining shaxsiy aralashuvi bilan bog'liq bo'lgan har qanday risk istisno qilinadi va aksincha. Sug'urtalovchining shaxsiy aralashuvi summasini oshiruvchi risklar qayta sug'urtalangan hisoblanadi.

Qayta sug'urtalash foizi bu risk bo'yicha sug'urta summasi qancha katta bo'lsa, shuncha katta bo'ladi. Misol: agar sug'urtalovchining aralashuvi summasi 500 ming bo'lsa, sug'urta summasi 1 mlrd. bo'lsa, qayta sug'urtalovchi foizi qayta sug'urtalovchining qatnashgan ulushini

summasiga qarab aniqlanadi. Bu misolda 90 ga teng. Agar sug'urta summasi 2 mlrd. bo'lsa, qayta sug'urtalash summasi 75% bo'ladi. Ekssedentli qayta sug'urtalash shartnomasi tsedent tomonidan ancha mehnat talab qiladi. Bu qayta sug'urtalashga beriladigan har bir riskni alohida o'rganish bilan bog'liqdir. Bir vaqtning o'zida har bir risk bo'yicha maksimal zarar baholanadi. Bu texnik qiyinchiliklarga qaramasdan ekssedentli qayta sug'urtalash shartnomalari amaliyotda kvotali qayta sug'urtalash shartnomalariga nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Bu tsedent uchun samarali. Bundan tashqari ekssedentli qayta sug'urtalash shartnomasi doirasida sug'urta to'lovining oz qismi qayta sug'urtalovchiga beriladi. Oxirgi natijada bu ishda o'zining shunday aralashuvi uchun imkoniyatga ega bo'ladi.

Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta (surplus reinsurance) shartnomasida sug'urta qoplamasini ta'minlash bo'yicha tomonlar majburiyatlari nisbatda belgilanadi. Majburiyatlarni taqsimlovchi nisbatni aniqlashdan oldin, sug'urtachining shaxsan o'zi ushlab qoluvchi chegrmani belgilovchi chiziq miqdorini tomonlar o'zaro kelishib olishi zarur. Masalan, 4,0 mln so'm miqdordagi chiziq me'yori belgilandi. Shartnomaning qayta sug'urta sig'imini aniqlashda qayta sug'urta limiti nechta chiziqdan iborat bo'lishiga kelishib olinadi. Agar bizning misolimizda qayta sug'urta sig'imini tomonlar 10 ta chiziqdan iborat deb kelishgan bo'lsa, unda qayta sug'urta limiti 44,0 mln so'mni tashkil qiladi. Munosib ravishda tomonlar o'rtasidagi majburiyat 9:91 nisbatda taqsimlanadi. Qayta sug'urtachi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasining sug'urta mukofotini 91 % ni, sug'urtachi esa sug'urta shartnomasi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararining 91 % ni olishi mumkin.

Agar sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta summasi kelishilgan limitdan kichik, lekin ushlab qolinuvchi shaxsiy chegirmadan katta bo'lsa, tomonlar riskni o'zaro taqsimlash bo'yicha kelishib olishadilar.

Ekssedent summasi asosidagi qayta sug'urta turida qayta sug'urtachi riskning tsedent o'z ixtiyorida ushlab qoluvchi limitidan oshgan qismida ishtirok etadi.

Qayta sug'urta to'lovlari va qayta sug'urta qoplamalarini hisoblashda tsedent qayta sug'urta foyizidan foydalaniladi. Qayta sug'urta foyizi - risk uchun belgilangan sug'urta summasida qayta sug'urtachining qatnashish ulushining nisbatidir. Masalan, sug'urtalangan obyektning sug'urta summasi 1,0 mln. so'm, sug'urtachining o'zida ushlab qoluvchi ulushi 500,0 ming so'm deb belgilansa, qayta sug'urta riski foyizi 50% hisoblanadi.

Yutuq tomoni:

– mazkur qayta sug'urta turida tsedent ixtiyorida qoluvchi sug'urta portfeli to'liqligicha mo'tadillashtiriladi;

– yaxshi risklarda tsedent shaxsan o'zida ushlab qoluvchi ulushini oshirib, yomon risklardagi shaxsan ishtirok etish ulushini kamaytirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mazkur qayta sug'urta turining asosiy kamchiliklaridan biri – bu uni amalga oshirish uchun katta boshqaruv xarajatlari talab qilinadi.

Aralash qayta sug'urtalash yoki kvota-ekssedentli qayta sug'urtalash amaliyotda kam qo'llaniladi. U o'zida ham kvotali, ham ekssedentli qayta sug'urtalash shartlarini jamlagan. Berilgan sug'urta portfeli kvota bo'yicha qayta sug'urtalanadi, lekin risklarni sug'urtalashni yuqori o'rnatilgan kvotasi (me'yor)ni oshirish o'z navbatida ekssedentli qayta sug'urtalash shartlari bo'yicha amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Ekssedent summasi asosidagi nisbiy qayta sug'urta turining asosiy g'oyasi nimadan iborat?

2. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turida qo'llaniluvchi asosiy atamalarga izoh bering.

3. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turi nimaga ushbu turga mansub?

4. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turining asosiy muvaffaqiyatli tomonlarini keltiring.

5. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turining asosiy kamchiliklarini keltiring.

6. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turiga misol keltirig.

7. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turida qayta sug'urta sig'imiga izoh bering.

8. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turini respublika sug'urta bozorida qo'llashda yuzaga keluvchi muammolar to'g'risida fikringizni bildiring.

9. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turida sedentning huquqlarini aytib bering.

10. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug'urta turida qayta sug'urtachining majburiyatlari nimalardan iborat?

## **IV BOB. NONISBIY QAYTA SUG'URTA MEXANIZMI**

### **4.1. Zarar eksседenti ( excess of loss) asosida qayta sug'urta turi**

Nonisbiy qayta sug'urta mexanizmi sug'urta amaliyotida ko'p qo'llaniluvchi sug'urta turidir. U jahon sug'urta amaliyotida o'z o'rniga va tarkibiga ega.

Qayta sug'urta qilish operatsiyalari nisbiy va nonisbiy shaklda amalga oshiriladi. Nonisbiy qayta sug'urta qilishga nisbatan nisbiy qayta sug'urtalash ancha ilgari paydo bo'lgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda nisbiy qayta sug'urtalashni ba'zan, an'anaviy qayta sug'urtalash deb atash qabul qilingan.

Nonisbiy qayta sug'urta qilishda qayta sug'urtalovchining sug'urta mukofoti va qoplamasidagi foizlardagi ishtiroki prinsipi qo'llanilmaydi. Nisbiy qayta sug'urta qilishda tomonlarning manfaati bir-biriga mos keladi.

Uning tarkibiga zarar eksседenti ( excess of loss) asosida qayta sug'urta, zararlilik eksседenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) turlari kiradi.

Nonisbiy qayta sug'urtada (nonproportional reinsurance) tomonlarning majburiyatlari nisbiy usulda taqsimlanilmaydi. Xalqaro amaliyotda eksседent summasi va zarari asoslaridagi nonisbiy qayta sug'urta mexanizmi qo'llaniladi.

Zarar eksседenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta qayta sug'urta qoplamalarining turlari bo'yicha bo'linishi mumkin: har bir alohida risk bo'yicha yoki bitta hodisa natijasida yuzaga kelgan zararlar yig'indisi bo'yicha (hodisa bo'yicha). Nonisbiy qayta sug'urta shartnomasida sug'urtachining o'zi to'lashi mumkin bo'lgan zarar miqdorining me'yori – ustunligi belgilanadi. To'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararning belgilangan ustunlikdan oshadigan miqdori, qayta sug'urta limiti chegarasida qayta sug'urtachi tomonidan qoplanib beriladi. Masalan, sug'urtachi ustunlik 4,0 mln so'm miqdorida, qayta sug'urta limiti 6,0 mln so'm miqdorida belgilangan. Haqiqatda, to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha 3,5 mln so'm zarar yuzaga keldi. Ushbu

misolda keltirilgan zararni qoplash yuzasidan qayta sug'urtachida hech qanday majburiyat paydo bo'lmaydi. Yuzaga kelgan zarar miqdorini 7,0 mln so'm deb faraz qilamiz. Bu holatda qayta sug'urtachi yuzaga kelgan zararining 3,0 mln so'mini qoplab berishi lozim.

Agar qayta sug'urta shartnomasida qayta sug'urta qoplamasi «hodisa bo'yicha» tamoyilida ta'minlash belgilangan bo'lsa, sug'urtachining ustunligi nisbatan katta miqdorda belgilanishi lozim. Chunki, qayta sug'urta qoplamasini amalga oshirish bo'yicha majburiyat qayta sug'urtachida faqat bitta hodisa natijasida, katta miqdordagi zararlar yig'indisi yuzaga kelgan hollarda paydo bo'lishi mumkin. Bunday zararlar asosan, dovul, suv toshqini, do'l va boshqa tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Odatda, qayta sug'urta shartnomasida ustunlik miqdorini belgilashda to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi tomonidan shakllantrilgan sug'urta portfelining riskka uchrash ehtimoli darajasi, sug'urta turi va boshqa ta'sir qiluvchi omillar inobatga olinadi.

Nonisbiy obligator qayta sug'urta shartnomalarida qayta sug'urta limiti va ustunliklarini belgilash bilan bir qatorda, to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachiga qayta sug'urta sig'imini tiklash imkoniyati ham beriladi. Masalan, qayta sug'urta shartnomasidagi 7,0 mln so'mlik qayta sug'urta limiti ikki marta tiklanish imkoniyati bilan ta'minlangan. Ikki marta tiklanish imkoniyatlaridan bittasi sug'urtachi uchun tekinga, ikkinchisi shartnomada belgilangan minimal depozit mukofoti to'lash sharti bilan berilgan. Agar qayta sug'urta shartnomasi amaldagi muddatda qayta sug'urtachi tomonidan qoplangan zararlar miqdori 7,0 mln so'mdan oshsa, sug'urtachi bir marta tekinga qayta sug'urta limitini tiklash huquqiga ega bo'ladi. Agar, keyinchalik zararlar miqdori 14,0 mln so'mdan oshib ketsa, keyingi qayta sug'urta limitini tiklash imkoniyati faqat depozit mukofotini to'lash sharti bilan beriladi. Zararlar hajmi 21,0 mln so'mdan oshib ketsa, zararlarning oshgan qismi qayta sug'urtachi bilan kelishgan holda yoki sug'urtachining o'zi zararining ushbu qismini mustaqil to'laydi.

### **Nazorat savollari**

1. Zarar eksedenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta turining asosiy g'oyasini tushuntirib bering.

2. Zarar eksedenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta turida sug'urtachining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

3. Zarar eksседenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta turida ishlatiluvchi asosiy apparat tushunchalariga izoh bering.

4. Zarar eksседenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta turida sug'urta qoplamalarini to'lash tartibini tushuntirib bering.

5. Zarar eksседenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta shartnomalarini tuzish tartibini tushuntirib bering.

6. Zarar eksседenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta turida sug'urta mukofoti qanday taqsimlanadi?

7. Zarar eksседenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta turini qo'llash shart – sharoitlarini tushuntirib bering.

8. Zarar eksседenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta turida ustunlik nimani bildiradi?

9. Zarar eksседenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta turi nimaga nonisbiy qayta sug'urta turi tarkibiga kiritiladi?

10. Zarar eksседenti (excess of loss) asosida qayta sug'urta turi asosiy muammolari nimalardan iborat?

#### **4.2. Zararlilik eksседenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) turi**

Zararlilik eksседenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) sug'urtachiga qayta sug'urta qoplamasini ma'lum sug'urta turi bo'yicha sug'urta operatsiyalarining zararlilik ko'rsatkichi oshgan hollarda beradi. Bunday shartnomalarda ustunlik miqdori yil mobaynida sug'urtachi tomonidan ishlab topilgan yoki olingan sug'urta mukofoti hajmiga nisbatan belgilanadi va zararining ustunlik miqdoridan oshgan qiymati qayta sug'urtachi tomonidan qoplab beriladi. Qayta sug'urta qoplamasini to'lash majburiyatini aniqlashda zarar miqdori belgilangan ustunlikdan bitta hodisa natijasida kelgan kumulyativ zararlar yoki bir nechta yirik zararlar sababli yuz berganligi ahamiyat kasb etmaydi. Masalan, avtotransport sug'urtasi uchun (kasko) sug'urtachi ustunligi 93 % ni, qayta sug'urtachi ulushi 12 % ni tashkil qilishiga tomonlar kelishib oldi. To'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining birlashgan zararlilik darajasi 98 % ni tashkil qilsa, zararlilik darajasining 5 % miqdoridagi oshgan qismi, qayta sug'urtachi tomonidan qoplab beriladi. Qayta sug'urtachi tomonidan qoplab berishi lozim bo'lgan aniq summasini topish uchun, sug'urtachi tomonidan sug'urtaning ushbu turi bo'yicha olgan sug'urta mukofotini zararlilik darajasining oshgan qismiga ko'paytirish zarur. Agar bizning misolimizda sug'urtachining birlashgan zararlilik ko'rsatkichi 108 % ni tashkil qilsa, qayta sug'urtachi uning ulushiga



to'g'ri keluvchi 12 % zararni qoplab berishga majburdir, qolgan 3 % 105 % dan oshgan qismi yana sug'urtachining shaxsiy chegirmasida ushlab qolinadi.

### **Nazorat savollari**

1. Zararlilik eksedenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) turiga ta'rif bering.

2. Zararlilik eksedenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) turing o'ziga xos xususiyatlari nimada?

3. Zararlilik eksedenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) turining qayta sug'urtaning boshqa turlaridan asosiy farqli jihatlarini tushuntirib bering.

4. Zararlilik eksedenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) turida qayta sug'urta majburiyatlari qanday taqsimlanadi?

5. Qayta sug'urta amaliyotida nonisbiy qayta sug'urtaning qanaqa turlari qo'llaniladi?

6. Sug'urtachining shaxsiy chegirmasi nima?

7. Zararlilik eksedenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) turi bo'yicha misollar keltiring.

8. Zararlilik eksedenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) turida qayta sug'urta qoplamasini ta'minlash umumiy tamoyillari nima?

9. Zararlilik eksedenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) turini respublika sug'urta sohasida qo'llash mumkinmi?

10. Zararlilik eksedenti asosida qayta sug'urta (stop-loss) turining asosiy muammolari nima?

## **V BOB. QAYTA SUG'URTA FAOLIYATINING HUQUQIY VA TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **5.1 Qayta sug'urta faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari**

Xalqaro va milliy qayta sug'urta amaliyoti tahlil qilinganda qayta sug'urta operatsiyalari bilan ikki xil sug'urta tashkilotlari qayta sug'urta bilan shug'illanishini kuzatishi mumkin. Birinchi turdagi qayta sug'urta tashkilotlari qayta sug'urta operatsiyalari bilan ikkilamchi faoliyat tariqasida shug'illanishadilar. Ularning asosiy faoliyati to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari asosida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida bir qancha sug'urta tashkilotlari ikkilamchi ko'rinishda qayta sug'urta xizmatlari ko'rsatishadi. Bunday sug'urta tashkilotlari uchun qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish uchun qonunda qo'shimcha talablar belgilanmagan.

Qayta sug'urta operatsiyalariga ixtisoslashgan sug'urta tashkilotlari uchun O'zbekiston Respublikasi sug'urta qonunchiligida ayrim talablar belgilangan. Birinchidan, ixtisoslashgan qayta sug'urta tashkiloti O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati idorasidan maxsus ruxsatnoma olishi va 4,0 mln. yevro miqdorida ustav jamg'armasiga ega bo'lishi majburiy qilib belgilangan. "Standart inshurans" RE O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida qayta sug'urtaga ixtisoslashgan.

Qayta sug'urta operatsiyasi bilan shug'illanuvchi sug'urta tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari turli xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, aksiyadorlik, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy va chet el sarmoyasi ishtirokida tashkil qilinuvchi qo'shma korxonalar ko'rinishida.

Aksiyadorlik shaklidagi sug'urta tashkilotlarining faoliyati «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonun bilan bir qatorda «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunga muvofiq huquqiy tartibga solinadi. Aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari yopiq va ochiq turda tashkil etilishi mumkin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida boshqa mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari bilan bir qatorda aksiyadorlik sug'urta tashkilotlari ham muvaffaqiyatli

faoliyat ko'rsatishmoqda. Ular jurnlasiga ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan «O'zagrosug'urta» va «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyalarini, «Madad» sug'urta agentligini, «Kapital sug'urta» ochiq aksiyadorlik jamiyatlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan sug'urta tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – ular aksiyalarining fond bozorida erkin savdoga qo'yilishidir. Hozirgi kunda ushbu sug'urta tashkilotlari tomonidan sotuvga chiqarilgan aksiyalar investorlar o'rtasida to'liq joylashtirilgan bo'lsada, ular ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida oldi-sotdi obyektiga aylangani yo'q.

O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, aksiyadorlik shaklidagi jamiyatlarning, shu jumladan, sug'urta tashkilotlarining oliy boshqaruv organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi maxsus vakolatiga quyidagilar kiradi:

- sug'urta tashkiloti nizomiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;
- sug'urta tashkilotini qayta tashkil etish;
- sug'urta tashkilotini tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy balansni tasdiqlash;
- sug'urta tashkiloti kuzatuv kengashining tarkibi va sonini aniqlash, uning a'zolari va raisini saylash;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- sug'urta tashkilotining ustav kapitalini ko'paytirish;
- sug'urta tashkilotining auditorini tasdiqlash.

Shunisi diqqatga sazovorki, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bir yilda kamida bir marta chaqiriladi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi unda qatnashayotgan aksiyadorlar yoki ularning vakillarining kamida 60 foiz ovozigaga ega bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotining kuzatuv kengashi aksiyadorlar orasidan saylanib, ular umumiy yig'ilish oralag'ida aksiyadorlarning manfaatlarini himoya etadi.

Sug'urta tashkiloti kuzatuv kengashi quyidagi huquqlarga ega:

- sug'urta tashkilotining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibini belgilaydi;
- obligatsiyalar va qimmatli qog'ozlarni joylashtiradi;
- sug'urta tashkiloti filiallari va vakolatxonalarini tashkil etadi va tugatadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 16-bobi xususiy mulkka bag'ishlangan bo'lib, uning 207-moddasida «Xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan molmulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir», deb ko'rsatilgan. Sug'urta tashkilotlari xususiy mulk shaklida ham tashkil etilishi mumkin. Shuningdek sug'urta tashkiloti mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat shaklida ham tashkil etiladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deganda bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati tushuniladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi qonunining 3-moddasida alohida qayd etilgan. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Biz yuqorida sug'urta tashkiloti qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat shaklida ham barpo etilishi mumkin, deb ta'kidlagan edik. Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat hisoblanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tuzilgan sug'urta tashkilotining ishtirokchilari bo'ladi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari bo'lishi mumkin emas. Ta'kidlash joizki, mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilgan sug'urta tashkiloti ishtirokchilarining soni ellik kishidan oshmasligi lozim.

### **Nazorat savollari**

1. Qayta sug'urta tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy asoslari mazmuni nimalardan iborat?
2. Qayta sug'urta tashkilotlari uchun ustav jamg'armasining minimal miqdori qancha bo'lishi talab qilinadi?
3. Qayta sug'urta tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy asoslari qanday me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi?
4. Qayta sug'urta tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarini sanab bering.

5. Aksiyadorlik jamiyatlari ko‘rinishidagi qayta sug‘urta tashkilotlarining tashkil qilish va uni boshqarishning o‘ziga xosliklarini aytib bering.

6. Yopiq va ochiq aksiyadorlik jamiyatlari ko‘rinishidagi qayta sug‘urta tashkilotlariga izoh bering.

7. Qayta sug‘urta tashkilotlarini qo‘shma korxonada ko‘rinishida tashkil qilish mumkinmi?

8. Xususiy mulkchilikka asoslangan qayta sug‘urta tashkilotlarini tashkil qilish mumkinmi?

9. Mas‘uliyati cheklangan qayta sug‘urta tashkilotlarini tashkil qilish va uni tartibga solish haqida gapirib bering.

10. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorida qaysi sug‘urta tashkiloti qayta sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirishga ixtisoslashgan?

## **5.2. Qayta sug‘urta faoliyatining huquqiy asoslari**

Qayta sug‘urta faoliyatining huquqiy asoslari qayta sug‘urta faoliyatini tartibga soladi. U turli davlatlarda turli xil bo‘lsada umumiy mazmunga ega. Qayta sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi toifadagi huquqiy asoslar tarkibiga umumiy qonunlar kiritiladi. Qayta sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonunlarga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (52 – bob), O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” gi 2002 yil 5 apreldagi qonuni va boshqa sug‘urta sohasiga oid qonunlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida O‘zbekiston Respublikasida qayta sug‘urta qilish umumiy qoidalari batafsil bayon qilingan. Ushbu moddaga asosan sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi o‘z zimmasiga olgan sug‘urta tovonini yoki sug‘urta pulini to‘lash xavfi uning tomonidan to‘liq yoki qisman boshqa sug‘urtalovchida (sug‘urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalanishi mumkin.

Qayta sug‘urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug‘urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu bobning tadbirkorlik xavfini sug‘urta qilish borasida qo‘llanishi lozim bo‘lgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sug‘urta qilish shartnomasini tuzgan sug‘urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo‘yicha sug‘urtalovchi keyingi shartnomada sug‘urta qildiruvchi hisoblanadi.

Qayta sug'urta qilishda sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi oldida ushbu shartnoma bo'yicha sug'urtalovchi javobgar bo'lib qolaveradi.

Biroq asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi hisoblangan sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarining qayta sug'urta qilingan qismi qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga o'tadi.

Ikki yoki bir nechta qayta sug'urta qilish shartnomalarini ketma-ket tuzishga yo'l qo'yiladi. Bunday shartnomalarning har biri keyingi qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan asosiy sug'urta shartnomasi deb hisoblanadi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bilan qayta sug'urtaning bilvosita boshqa munosabatlari ham tartibga solinadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, qayta sug'urta faoliyatini tartibga solishda sug'urtaga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlarining o'rni katta.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida qayta sug'urta brokerlarining vazifalari belgilangan. Mazkur Qonunning 8-moddasida o'z nomidan va qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi tarig'asida ishtirok etuvchi sug'urtalovchining topshirig'iga binoan qayta sug'urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug'urta brokeri hisoblanishi belgilangan<sup>2</sup>.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari quyidagi huquqlarga ega:

sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har qanday turi bo'yicha vakolatlar doirasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilgan taqdirda, sug'urtalovchini (qayta sug'urtalovchini) tanlash;

sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondining miqdorlari, sug'urta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek, sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar olish;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T: "Adolat". 2001 y.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni. – "Xalq so'zi" 2002- yil 28-may.

ekspert va maslahat xizmatlari ko'rsatish.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari qonun hujjatlariga hamda o'zlari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi; sug'urta shartnomasini tuzish va ijro etish bo'yicha to'liq, ishonchli hamda xolisona axborotni mijozlarning so'rovlariga ko'ra taqdim etishi; mijozning tijorat va boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi shart.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlarining zimmasida qonun hujjatlariga hamda o'zlari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin<sup>3</sup>.

Qayta sug'urta munosabatlarini tartibga solish huquqiy asoslaridan biri – bu qayta sug'urta shartnomalaridir.

Qayta sug'urta qilish shartnomalari bir tomondan, sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro tuzilishi yoki ikkinchi tomondan, sug'urta kompaniyasi va ixtisoslashgan qayta sug'urta qilish kompaniyasi o'rtasida tuzilishi mumkin. Bu yerda shartnoma o'zi nima degan savol tug'ilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 354-moddasida «ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi» – deb ko'rsatilgan. Dastlab, sug'urta kompaniyasi o'zining moliyaviy qobiliyatini mustahkamlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini boshqa sug'urta kompaniyasida yoki ixtisoslashgan qayta sug'urta qilish kompaniyasida sug'urtalash to'g'risida qaror qabul qiladi. Ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida sug'urtalovchi ixtisoslashgan sug'urta kompaniyasiga murojaat qiladi. Agar qayta sug'urtalovchi kompaniya riskni qayta sug'urta qilishga rozilik bildirsa, ular o'rtasida qayta sug'urtalash shartnomasi tuziladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shartnoma shartlarida, unda ishtirok etuvchi tomonlarning huquqlari va majburiyatlari, olingan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan javobgarlik, shartnomani kuchga kirishi, amal qilish va bekor etilishi qoidalari mujassam bo'lishi kerak. Shuningdek, shartnomada qayta sug'urtalash mukofoti miqdori va javobgarlik hajmi ko'rsatilishi zarur. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, qayta sug'urta qilishda sug'urta tovonini yoki

---

<sup>3</sup> O'zR 14.09.2007 y. O'Rz-108-son Qonuni tahriridagi modda

sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi oldida ushbu shartnoma bo'yicha sug'urta kompaniyasi javobgar bo'lib qolaveradi. Biroq asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi hisoblangan sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarining qayta sug'urta qilingan qismi qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga o'tadi.

Qayta sug'urta qilish shartnomalari bir qator o'ziga xos belgilarga egaki, bu ushbu shartnomalarni savdo va boshqa turdagi shartnomalardan tubdan farq qildiradi. Shuning uchun ham qayta sug'urta qilish sohasini nazariy jihatdan qaysi sug'urta tarmog'iga kiritish yohud uni mustaqil sug'urta sohasi sifatida qarash ancha bahs-munozarani talab qiladi.

Agar sug'urta hodisasi ro'y bersa, bu haqda sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniyaga darhol xabar qilishi kerak. o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi kompaniya shartnomada ko'zda tutilgan qoplamani to'lashi shart. Qayta sug'urta qilish kompaniyasi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'la-to'kis bajarsa, u holda shartnoma ijro etilgan hisoblanadi.

Qayta sug'urtalash ishida uning bir necha turlarini uchratish mumkin. Jumladan, fakultativ, obligator va fakultativ-obligatorli qayta sug'urtalash. Fakultativ qayta sug'urtalash — nisbiy qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Tsedent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham tsedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi mumkin.

Qayta sug'urta qilish shartnomasiga xos bo'lgan belgilardan biri qayta sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlarini qaytarib olish xarakteriga ega ekanligidir. Qayta sug'urta qilish munosabatlarining uzoq yillik rivojlanishi jarayoni davomida xalqaro va milliy darajalarda foydalaniladigan qayta sug'urta qilish shartnomalarining bir necha xillari shakllangan. Ular quyidagilardir:

- \* fakultativ qayta sug'urta qilish;
- \* obligatorli qayta sug'urta qilish;
- \* fakultativ-obligatorli qayta sug'urta qilish;

Yuqorida qayd qilingan qayta sug'urta qilish shartnomalaridan eng ommaviysi va uzoq yillardan beri qo'llanib kelinayotgani - bu fakultativ qayta sug'urta qilish shartnomalaridir. Mazkur shartnomaning ijobiy



tomoni shundaki, bunda riskni qayta sug'urtaga beruvchi – sug'urta kompaniyasi ham va qayta sug'urtalovchi kompaniya ham qancha miqdordagi riskni o'ziga olib qolish yoki qabul qilib olish masalalarini mustaqil hal qiladilar. Aksincha, obligatorli qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan har bir riskning tegishli qismini qayta sug'urta kompaniyasiga berishi shart.

### **Nazorat savollari**

1. Qayta sug'urta huquqiy asoslarini mohiyatini tushuntirib bering.
2. Qayta sug'urtaning huquqiy asoslari necha guruhdan iborat?
3. Qayta sug'urtaning huquqiy asoslarini tartibga soluvchi umumiy qonunlarga nimalar kiradi?
4. Qayta sug'urta shartnomalarining vazifasini tushuntirib bering.
5. Qayta sug'urta shartnomalarining turlarini sanab bering.
6. O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunining qaysi bandida qayta sug'urta brokerining vazifalari belgilangan?
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining qaysi bobida qayta sug'urta munosabatlari aks ettirilgan?
8. Qayta sug'urta shartnomalari tomonlarining huquqlarining tushuntirib bering.
9. Qayta sug'urta shartnomalarining tomonlarini majburiyatlarini tushuntirib bering.
10. Qayta sug'urtaning tashkiliy-huquqiy va huquqiy asoslarining farqi nimada?

### **5.3. Sug'urta faoliyatining klasslari**

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarori asosida tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" gi Qaroriga asosan sug'urtaning turli tarmoqlarida o'z faoliyatini amalga oshiradigan sug'urtalovchilar

quyidagi minimal Nizom kapitali me'yorlarini 2010-yilning 1-yanvariga qadar bajarishi shart<sup>1</sup>:

– hayotni sug'urta qilish tarmog'ida ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun - 1000 ming yevro dollariga teng miqdordagi summada;

– umumiy sug'urta tarmog'iga ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun - 750 ming yevro dollariga teng miqdordagi summada;

– qayta sug'urta qilish faoliyatiga ixtisoslashayotgan sug'urtalovchilar uchun (agar faoliyat mavzusi faqat qayta sug'urta qilish bo'lsa) - 4 mln yevro dollariga teng summada belgilanadi;

– majburiy sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 1,5 ming yevro dollariga teng miqdordagi summada belgilanadi.

Agar sug'urta kompaniyasi faqat qayta sug'urtalash faoliyatini amalga oshirish uchun ixtisoslashsa, uning Nizom kapitali hajmi 4 mln. yevro ekvivalentidagi summadan kam bo'lmasligi zarur. Demak, har qanday sug'urta tashkiloti qayta sug'urtalovchi yoki qayta sug'urtalanuvchi sifatida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishi mumkin. Qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus litsenziyaning talab etilmasligi, sug'urta bozori ishtirokchilari uchun ortiqcha majburiyatlarni qayta sug'urtaga o'tkazish imkoniyatini beradi.

Qayta sug'urta bilan shug'illanuvchi sug'urta tashkilotlari to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalarini tuzish uchun sug'urta faoliyatining klasslari bo'yicha litsenziya olishadi.

Umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari quyidagi klass(tur)lar bo'yicha litsenziya olishi mumkin (2-jadval)

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. "Xalq so'zi" 2008 yil 22 may.

## Umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha sug'urta klass(tur)lari

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
1-klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yohud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
2-klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
3-klass	Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish	Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari, jami
4-klass	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari, jami
5-klass	Aviatsiya sug'urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbobuskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari, jami
6-klass	Dengiz sug'urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari, jami

7-klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari, jami
8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, yemirilish, yer osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7- klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari, jami
9-klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari, jami
10-klass	Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	Er usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari, jami
11-klass	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari, jami
12-klass	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari, jami
13-klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	10, 11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari, jami
14-klass	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari, jami

15-klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari, jami
16-klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchilik ardan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlarni natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari, jami
17-klass	Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish	Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlarni natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari, jami

Hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari quyidagi keltirilgan sug'urta klass(tur)lari bo'yicha litsenziya olishlari mumkin (3-jadval):

3-jadval

### Hayot sug'urtasi tarmog'i bo'yicha sug'urta klass(tur)lari

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I klass	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari, jami: – sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lguncha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi; – sug'urta qilinuvchining vafot etishi; Shuningdek, sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno

II klass	Nikoh va tug'ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari, jami
III klass	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish	Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami
IV klass	Sog'liqni sug'urta qilish	Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga yetguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summalari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari, jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas.

Hozirgi kunda sug'urta tashkilotlari litsenziyada ko'rsatilgan sug'urta klass (tur) lari doirasida o'z faoliyatlarini amalga oshirib kelmoqdalar.

### Nazorat savollari

1. Nima uchun sug'urta tashkilotlari uchun minimal ustav jamg'armasi miqdori belgilangan?
2. Qayta sug'urta tashkilotlarining minimal ustav jamg'armasi qancha bo'lishi kerak?
3. Ixtisoslashgan qayta sug'urta tashkilotlari uchun belgilangan talablar va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
4. Ixtisoslashmagan qayta sug'urta tashkilotlari deganda nimani tushunasiz?
5. Sug'urta faoliyati uchun belgilangan klasslar va qayta sug'urta faoliyati o'rtasida bog'lanish bormi?
6. Qayta sug'urta faoliyati bilan shug'illanishni rejalashtirgan sug'urta tashkilotlariga qo'yilgan talablarga izoh bering.
7. Qayta sug'urta faoliyati bilan shug'illanuvchi sug'urta tashkilotlari to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari tuzishga haqlimi?
8. Qayta sug'urta tashkilotlarining faoliyatlari kim tomonidan nazorat qilinadi?
9. Qayta sug'urta faoliyatini litsenziyalash kerakmi?
10. Qayta sug'urta faoliyatini tartibga solishdagi mavjud muammolar haqida tushuntirib bering.

## **VI BOB. QAYTA SUG'URTA FAOLIYATINI HUJJATLASHTIRISH**

### **6.1. Qayta sug'urta shartnomalarini tuzish tartibi**

Qayta sug'urta shartnomasini imzolash va uni bajarish qayta sug'urta shartnomasida tomonlarga yuklangan majburiyatlarning yozma usulda bajarilishini talab qiladi. Qayta sug'urta shartnomalaridagi hujjatlarning mazmuni va shakliga amal qilmaslik qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha nizolarni paydo bo'lishiga, ularning muddatlaridan oldin tugatilishiga, buxgalteriya va statistik hisob varaqlarida xato qilishga, sug'urtachi va qayta sug'urtachi moliyaviy hisobotlari faktlarining buzib ko'rsatilishiga olib kelishi mumkin.

**Qayta sug'urta shartnomasini tuzish uchun berilgan ofert.** Xizmat taklifi to'g'risidagi ma'lumotning asosiy muhim shartlarini qisqa bayon qiluvchi, qayta sug'urta shartnomasini imzolash uchun asos bo'lib hisoblanuvchi hujjat sli p (SLIP) deb ataladi. Unda sug'urta shakli, qayta sug'urta turi, qayta sug'urta limitining chiziqlari soni, ushlab qolish miqdori, qayta sug'urtalash rejalashtirilgan riskni joylashgan joyi, kutilayotgan sug'urta mukofoti to'g'risida ma'lumot beriladi. Slipda yana, har qanday ochilish rejalashtirilgan depozit va unga hisoblanuvchi foyiz (agar shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa), "g'azna zarari" miqdori, foydadan to'lanuvchi komission mukofot va komissiya, shartnomaning amal qilinish muddati, bildirishnoma taqdim qilish muddati, qayta sug'urtaga beriluvchi risk to'g'risida qisqa ma'lumotlar berilishi mumkin. Olingan sli p asosida qayta sug'urtachi sug'urtachiga shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi qayta sug'urta sertifikatini taqdim qiladi. Ba'zi hollarda, agar sli p qayta sug'urta shartnomasining barcha muhim shartlari o'zida aks ettirgan bo'lsa, u holda bunday sli plar fakultativ qayta sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat o'rni da ham xizmat qilishi mumkin.

Qayta sug'urta shartnomasini tuzish.

Tomonlar shartnomaning muddati va shartlarini kelishgandan keyin, shartnoma matni tayyorlanadi. Shartnoma matni yuzasidan ikki tomonda e'tiroz bo'lmagandagina u imzolanadi. Odatda, obligator qayta

sug'urta shartnomasi joriy yilning 1 yanvaridan amalga kiritiladi. Fakultativ qayta sug'urta shartnomasining amal qilish muddati esa, qayta sug'urtaga berilgan risk sug'urtalagan to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasining amal qilish muddatiga mos keladi. Shartnomaga kiritiluvchi keyingi o'zgarishlar shartnomaning orqa tomonida bayon qilinadi yoki qayta sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda, manzillar bo'yicha tomonlar o'rtasida o'zaro yozishma orqali amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Slip nima?
2. Qaysi hollarda slip qayta sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib xizmat qiladi?
3. Ofert nima uchun taqdim qilinadi?
4. Qayta sug'urta shartnomasini tuzish tartibini tushuntirib bering.
5. Qayta sug'urta shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
6. Obligator qayta sug'urta shartnomalarining muddatini belgilashdagi o'ziga xosliklarni tushuntirib bering.
7. Qayta sug'urta shartnomalari qanday hollarda bekor qilinadi?
8. To'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi qayta sug'urta shartnomasiga o'zgartirish kiritishi mumkinmi?
9. Qayta sug'urta shartnomalarining asosiy elementlarini tushuntirib bering.
10. Qayta sug'urta turlari bo'yicha qayta sug'urta shartnomalarida farq bormi?

### **6.2. Qayta sug'urta shartnomalariga doir boshqa hujjatlashtirishlar**

Bordero mukofoti to'g'risida oldingi mavzularda ham to'xtalib o'tilgan edi.

To'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi tomonidan taqdim qilinadigan bordero orqali qayta sug'urtachi ekssedent qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha berilgan risklar haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi. Qayta sug'urtachi olingan ma'lumot asosida risklar majmuasi ehtimolini aniqlashi mumkin. Bordero alohida risklarni qayta sug'urtaga qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bordero – bu, sug'urtalanuvchilar nomlari, risklar tabiati va joylashgan joyi, sug'urta summasi miqdori qayta sug'urtaga berilgan risk ulushi,



to'lanuvchi mukofot, chegirmalar, qayta sug'urta ulushi va qoplash muddati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ro'yxat. Amaliyotda yirik risklarni sug'urta qilish uchun, vaqti-vaqti bilan oldindan (dastlabki) bordero taqdim qilinadi, keyinchalik esa tugallangan to'liq bordero taqdim qilinadi.

### **Zararlar to'g'risida bildirish.**

Sug'urtachi tomonidan qayta sug'urtachiga taqdim qilinadigan har choraklik yoki har oylik ro'yxatda sodir bo'lgan zararlarning yillari bo'yicha guruhlangan ma'lumotnomasi berib turiladi. Odatda, yirik zararlar ro'y bergan hollarda, tsedent qayta sug'urtachidan «gazna zarari»ni to'lash to'g'risida darhol talab qilish huquqiga ega bo'lishga erishiladi. Ushbu huquq to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining to'lov qobiliyatiga bo'lgan katta bosimning oldini olishga yordam beradi.

Ekssedent zarari asosida qayta sug'urta turida, sug'urtachi ustunligidan oshishiga olib keluvchi har qanday zarar to'g'risida qayta sug'urtachini xabardor qilib, undan qayta sug'urta to'lovini amalga oshirishini talab qilishi zarur. Sug'urtachi va qayta sug'urtachi ushbu majburiyatga aniq rioya qilmasdan, zararlar dinamikasining rivojlanishi ustidan nazorat qila olmaydilar.

**Yig'ma (kumulyatsion) bordero** — tabiiy ofatlarga (xususan, yer qimirlash, bo'ron, qurg'oqchilik, suv toshqini) qarshi nisbiy qayta sug'urta shartnomasi tuzuvchi qayta sug'urtachiga sug'urtachi tomonidan taqdim qilinadigan ma'lumotlar turidir. Yig'ma (kumulyatsion) bordero tarkibiga sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan majburiyatlarni aniq baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar (o'xshash risklarni qoplovchi polislar soni, qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha berilgan sug'urta summaları to'g'risida doimiy xabar) kiritiladi. Odatda, bunday ma'lumotlar har yilning 30 iyuni va 31 dekabrilarida domiy ravishda berib turiladi. Tabiiy ofatlar aniq joylar bilan bog'langanligi sababli bunday ma'lumotlar aniq tumanlarga muvofiq (ko'p hollarda siyosiy va ma'muriy yoki pochta tumanlariga bo'linishi ishlatiladi) kichik bo'limlarga bo'linadi.

Tabiiy ofatlar, shuningdek, yer qimirlash bilan bog'liq ma'lumotlarning yig'ma sxemalaridan ham xalqaro amaliyotda ma'lumot manbaasi sifatida foydalaniladi. Yig'ma sxemalar yer qimirlash riskiga ega bo'lgan barcha davlatlar uchun, Kresta tashkiloti tomonidan, 1976 yilda ishlab chiqilgan. 1990 yilda Yevropada bo'lib o'tgan kuchli dovul natijasida ushbu risk turi ham yig'ma sxema tarkibiga kiritildi. 1993 yildan boshlab butun jahon qabul qilgan formatda, disketlarda yig'ma ma'lumotni o'z atishga mos keluvchi standart o'rnatildi.

Ushbu yig‘ma ma‘lumotni ma‘lum regionlarda tuzilgan shartnomalarga nisbatan tatbiq qila turib, qayta sug‘urtachi maxsus yig‘ilgan risklarining ro‘y berish ehtimolini o‘rgana olishi mumkin. Bu unga qayta sug‘urta limitini belgilash, retrosessiyaga zaruratni aniqlash, yig‘ilgan risklar ustidan nazorat o‘rnatish uchun zarur.

**Hisobot.** Qayta sug‘urtachi har bir sug‘urtachi bilan, joriy hisob varaqasi asosida hisob-kitob olib boradi. Nisbiy qayta sug‘urtada hisobot odatda, xar chorakda yozilib, taqdim qilinsa, nonisbiy qayta sug‘urtada hisobot to‘ldirish bir yilda bir marotaba amalga oshiriladi. Shu sababli aytilish muhimki, qayta sug‘urta shartnomasida kelishilgan depozit mukofotlar darhol to‘lanadi va olinadi. Fakultativ qayta sug‘urtada mukofot to‘lanishi kerak bo‘lgan vaqtda, hisobot taqdim qilinadi. Retrosessiya holatlarida, hisobotni yarim yoki bir biznes yiliga taqdim qilinishini ta‘minlash maqsadida hisobot davri uzaytirilishiga harakat qilinadi.

Har bir chorak tugagandan keyin, hisobot 6 hafta muddatida taqdim qilinadi, qayta sug‘urtachi ushbu hisobotni odatda 2 haftadan oshmagan muddatda ko‘rib chiqadi. Ammo amaliyotda hisobot to‘ldirish muddati 6 haftadan 3 oygacha, o‘rganish muddati 2 haftadan 4 haftagacha cho‘zilib ketishi mumkin. E‘tirozlar yo‘q hollarda, qarzdor o‘z hisob varag‘idan pul ko‘chiradi.

Qayta sug‘urta shartnomasi ko‘pchilik hollarda xalqaro biznesda qo‘llanilsada, ichki hisob-kitob milliy valutada amalga oshiriladi. Amaliyotda yana, “balans va zaxira sug‘urta qoplamasiga yoki valutasiga mos kelishi” tamoyiliga asosan qo‘sha valutada hisob-kitob amalga oshiriladi. Ish jarayonini soddalashtirish maqsadida to‘lovlarni faqat bitta valutada amalga oshirish, tomonlarni valuta kurslarining ancha miqdorda tebranishi natijasida yuzaga keluvchi riskka duch qiladi.

Yil yakunida, foydadan komissiya to‘lovchi sug‘urtachi o‘zining zararlarini bo‘yicha zaxiralar to‘g‘risida ma‘lumotini, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotini, kelishilgan shaklda qayta sug‘urtachiga oldindan taqdim qiladi. Agar tomonlar toyuvchi komissiyaga kelishgan bo‘lsa, u holda qayta sug‘urta shartnomasi amaldagi yil uchun komissiya zararga va zararlikka nisbiy ravishda aniqlanadi va bu haqida qayta sug‘urtachi ogohlantiriladi (toyuvchi komission mukofotga mos holda).

**Mukofot va zararlar zaxirasi.** Qayta sug‘urtachining sug‘urta zaxiralari ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urtachining zaxiralarini aniqlashda qo‘llaniluvchi usullar bilan aniqlanadi. Obligator qayta sug‘urta shartnomasi tuzuvchi qayta sug‘urtachi o‘ziga taalluqli bo‘lgan qayta sug‘urta shartnomalari

bo'yicha ishlab topilmagan mukofot va zararlar zaxiralarining umumlashtirilgan balansi va ularning alohida shartnomalar bo'yicha holati haqida doimo aniq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Shu sababli, qayta sug'urtachiga ishlab topilmagan mukofot va zararlar zaxirasini aniqlash imkoniyatini beruvchi shartlar obligator qayta sug'urta shartnomasiga kiritilishi zarur. Zararlar zaxirasi qayta sug'urta yilining oxirida, sug'urtachi tomonidan berilgan ma'lumot asosida hisoblanadi. Ammo, olingan ma'lumotlarni ishonchliligini, to'liqliligini tekshirmasdan, qayta sug'urtachi ushbu ma'lumotlarni zararlar zaxirasini hisob-kitobi uchun qabul qila olmaydi. Xususan, fuqarolik javobgarligini nisbiy qayta sug'urta qilishda va shunga o'xshash boshqa qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda yuz bergan, lekin ariza berilmagan zararlar bo'yicha majburiyatlar inobatga olinganligiga ishonch hosil qilinishi lozim. O'z navbatida, ularni aniqlash uchun, oldingi sug'urta yillar yoki zarar ko'rilgan yillar asosida shakllantirilgan zaxiralar harakatini e'tibor bilan kuzatish zarur. Qayta sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy tizimida sug'urtachiga noqulay sharoit yaratuvchi o'zgarishlar yuz berishi, inflatsiya darajasining me'yordan ortiq tebranishi, shakllangan zaxiralarni kamomadga olib kelishi mumkin. Ba'zi davlatlarda, qayta sug'urtachining "foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobot va balansini tuzish uchun zararlilik tebranishi va yirik zararlar zaxiralarini shakllantirish muhimdir. Qayta sug'urta faoliyatining tabiatini, yirik zararlarga duch kelishdagi o'ziga xos xususiyatlarini inobatga ola turib, zaxiralarni shakllantirish masalasiga yondashmoq maqsadga munofiq. Ushbu yondashishlar amaldagi huquqiy norma va nizomlarga mos kelishi kerak.

**Qayta sug'urta statistikasi.** Taqdim qilingan bordero, "foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotlar asosida qayta sug'urtachi tuzilgan shartnomalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar dinamikasini va rivojlanishini nazorat qiladi. Qayta sug'urta statistikasi to'g'risida boshqa hujjatlar bo'lmagan holda bunday nazorat olib borish alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Tsedentning sug'urta portfeliga, uning anderayterlik siyosatiga qayta sug'urtachi tomonidan faoliyat yakuni ma'lumotlari va maxsus so'rov asosida olingan ma'lumotlar asosida baho beriladi. Qayta sug'urta shartnomalarining bajarilish natijalari umumlashgan statistik ma'lumot ko'rinishida, yilma-yil olib boriladi. Umumlashgan statistik ma'lumotlar mazmuni "foyda va zararlar to'g'risida"gi moliyaviy hisobot bilan taqqoslamadir.

Bunday ma'lumotlar asosida sug'urtachi qayta sug'urta shartnomasining shartlariga muhim o'zgartirishlar kiritish, mumkin. Olingan ma'lumotlar uzoq muddat davomida, qayta sug'urtachi tomonidan qayta sug'urta shartnomasining iqtisodiy maqsadga muvofiqligiga va uning hayotiyiligiga baho berishi uchun xizmat qiladi.

Odatda, mol-mulk sug'urtasi, fuqarolik javobgarligini sug'urtalash, baxtsiz hodisalarga qarshi sug'urtalash, avtotransport vositalarini sug'urtalash, hayotni sug'urtalash bo'yicha umumiy statistik ma'lumotlar kalendar yili uchun yig'ilib, jamlanadi. Suv, aviatsiya, injinerlik sug'urtalari va shunga o'xshash kreditni, kafolatni sug'urtalash yuzasidan statistik ma'lumotlar esa sug'urta yili asosida jamlanadi. Har bir sug'urta yilida amalga oshiriladigan zararlarni tartibga solishga katta ahamiyat beriladi.

Sug'urtachining zararni tartibga solish faoliyatini qayta sug'urtachi tomonidan muddatli tekshirib turilishi zarur. Bunday tekshirishlar natijasida, tsedent tomonidan shakllantirilgan zararlar zaxirasi yetariligi yoki ularning kamomadliligi va kamomadlik sabablari aniqlanadi. Ba'zi hollarda, zararlar zaxirasi talab qilinadigan darajada o'rnatilmaganligi, oldingi yillar faoliyati natijalari bo'rttirib, taqdim qilinganligi aniqlanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Qayta sug'urta shartnomalarida bordero mukofotidan qaysi maqsadlarda foydalaniladi?
2. Bordero mukofoti qanaqa mukofotlarni o'z ichiga oladi va sug'urtachi tomonidan qayta sug'urtachiga necha marta taqdim qilinadi?
3. Zararlar to'g'risida xabar qilish tartibi va shakliga nisbatan qayta sug'urta shartnomasida qanday talablar belgilanadi?
4. Zararlar to'g'risida o'z vaqtida xabar qilmaslik holatlari uchun qayta sug'urta shartnomasida qanaqa oqibatlar nazarda tutilgan?
5. Zararlar to'g'risidagi bordero nima?
6. Sug'urtaning ba'zi turlari bo'yicha qayta sug'urta statistikasini olib borishning o'ziga xos qanday xususiyatlari bor?
7. Umumiy kumulyatsion bordero qanaqa shaklga ega?
8. Qayta sug'urtachining umumiy kumulyatsion borderoni olishdan maqsadi nima?
9. Qayta sug'urta shartnomasini hujjatlashtirishga qo'yilgan talablarga rioya qilmaslik qanday oqibatlarga olib keladi?
10. Zararlar zaxirasini nazorat qilish nima uchun zarur?

## **VII BOB. QAYTA SUG'URTA SHARTNOMALARINI TARTIBGA SOLISHNING XALQARO AMALIYOTI**

### **7.1. Qayta sug'urta shartnomasini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari**

Qayta sug'urtaning iqtisodiy-moliyaviy tabiati tushunarlicanday bo'lsada, qayta sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi fuqaroviyhuquqiy asoslar murakkabdir. Ko'pchilik milliy huquqiy manbaalarda qayta sug'urta shartnomalarini tartibga soluvchi maxsus normalar mavjud emas. Bu esa shartnoma predmetini, uning asosiy shartlarini, tomonlarning huquq va majburiyatlarini, tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan kelishmovchilikni bartaraf qilish tartiblarini aniqlashda tomonlarga to'liq erkinlik beradi.

To'g'ridan-to'g'ri sug'urtadan farqli ravishda qayta sug'urtani tartibga soluvchi maxsus qonuniy normalar, shartnomani tuzishning umumiy shartlari deyarli biror davlatda mavjud emas. Ba'zi davlatlarda qayta sug'urta munosabatlarini to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi maxsus qonunlar – masalan, qayta sug'urta va qayta sug'urta shartnomalarini tuzish to'g'risida qonunlar mavjud bo'lmasada, sug'urta va sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunlarning ayrim nizomlari qayta sug'urta shartnomasining tomonlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Bundan tashqari, qayta sug'urtaning huquqiy asosini tashkil qiluvchi boshqa huquqiy manbalar ham mavjud, ammo juda kamchilikni bu manbalarga ega bo'lishga ruxsati bor (masalan, tijorat siri hisoblangan qayta sug'urta shartnomalari, ahyonda chop etiladigan arbitraj qarorlari, qayta sug'urta sohasida shakllangan odatlar). Qayta sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi odatlarga ish yuritish siyosati, xususan "ishonch va haqiqat" tamoyili katta ta'sir qiladi.

Bu normalar oddiy ish faoliyati davomida shakllangan amaliyotni o'zida aks ettirib, halqaro amaliyotda umum tan olingan qoidalar hisoblanadi. Shuning uchun sud jarayonlarida yuzaga kelgan qayta sug'urta muammolariga baho berish uchun, ushbu sohada ekspert hisoblangan mutaxassislarni ishtirok etishi talab qilinadi. Bu o'z navbatida, sudda nimaga qayta sug'urta bilan bog'liq bo'lgan nizolarni ko'rib chiqishi uchun maxsus arbitr tayinlanishiga izzoh beradi.

Qayta sug'urtaning rivojlanishini dastlabki bosqichlarida, qayta sug'urta mukofotini taqsimlashda spekulativ suistemol qilishlarga yo'l qo'yilgan. To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalovchilar to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha olingan mukofotni qayta sug'urtachi bilan noreal ulushda taqsimlaganlar. Bu esa ko'p joylarda qayta sug'urta operatsiyalarini taqiqlanishiga olib kelgan. Masalan, 1746-1864 yillar mobaynida Angliyada qayta sug'urta operatsiyalari taqiqlangan. Ushbu taqiq yakka tartibda faoliyat olib boruvchi sug'urtachilarni korporativ tartibda birlashishga majbur qilgan va Lloydlar manfaatini himoya qilgan. Natijada bu sug'urta sohasida risklarni birlamchi qayta taqsimlashning yakka hokimligiga olib kelgan. Dastlab Lloydlar ham faqat sug'urta faoliyati bilan shug'ullangan bo'lsa, hozirda ular qayta sug'urta xizmati bozorida muhim rol o'ynaydilar.

1746-1864 yillar o'rtasida Angliyada qayta sug'urta taqiqlangan bo'lsa, shu yillar davomida Yevropa qit'asida va AQSHda qayta sug'urta muvaffaqiyat bilan rivojlandi. Ushbu davlatlarning umumiy huquq tizimining bir qismi bo'lib hisoblangan, Britaniyaning qayta sug'urtani taqiqlovchi qonuniy aktlarini sudlar tomonidan ko'rib chiqish rad qilindi. AQSHda esa, XIX asr boshlarida Amerika sudlari tomonidan Potening «Sug'urta» nomli Emirgonning «Qayta sug'urta shartnomasi» monografiyalarida keltirilgan qayta sug'urta amaliyotining tamoyillaridan dalil sifatida foydalanilgan. Frantsuz sud amaliyoti esa o'sha davrda Amerika qayta sug'urta amaliyotini asosiy huquq manbasi sifatida qabul qilgan.

Ko'pgina milliy qonunchiliklarda qayta sug'urtaning faqat mohiyatini ochib beruvchi umumiy qoidalar o'z aksini topgan. Masalan, Argentinaning 1967 yilda qabul qilingan «Sug'urta to'g'risida»gi qonunida qayta sug'urta shartnomasiga sug'urtalangan riskni keng miqyosda, sug'urtachilar o'rtasida taqsimlash usuli deb ta'rif berilgan. Sug'urta summasi yoki potensial zarar sug'urtachining moliyaviy imkoniyatlaridan oshsa, qayta sug'urta shartnomasi tuzilishi mumkinligi va qayta sug'urtani "sug'urtachini sug'urtalash" deb atalishini ta'kidlaydi.

Finlandiyada qayta sug'urta tushunchasi ostida sug'urta shartnomasi tuzish bilan qabul qilingan risk bo'yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida, boshqa sug'urtachilardan sotib olingan sug'urta tushuniladi.

Germaniyada qayta sug'urta deb sug'urtachini sug'urtalash tushuniladi. Isroilda, 1981 yilda qabul qilingan «Sug'urta shartnomasi» to'g'risidagi qonunning 72- moddasiga asosan qonun normalari qayta sug'urta shartnomalariga tatbiq qilinmaydi. Shunga qaramasdan sug'urtaga berilgan umumiy ta'rif qayta sug'urtaga ham taalluqlidir: «Sug'urta shartnomasi

sug'urtachi va sug'urtalanuvchi o'rtasida imzolanib, sug'urtachi sug'urta hodisasi ro'y bergan shartlarda sug'urtalangan sug'urta summasini to'lab berish majburiyatini, sug'urta mukofoti evaziga oladi»

«Sug'urta kompaniyalari to'g'risida»gi Sloveniya qonunida me'yoridan oshgan majburiyatni sug'urtalash qayta sug'urta tushunchasini berishi bildirilgan. Qayta sug'urta qilishdan maqsad — faol qayta sug'urta operatsiyasini amalga oshirishga ixtisoslashgan sug'urtachidagi sug'urta portfelini mutanosibligini ta'minlashdir.

Ma'lumki AQSHda sug'urtalash Federal qonunlar bilan tartibga solinmaydi, har bir shtat sug'urta sohasida o'zining fuqarolik va ma'muriy qonunlariga ega. Kaliforniya shtatining Fuqarolik kodeksiga asosan, sug'urtachining to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha qabul qilgan zararni qoplash majburiyatlarini bajarish maqsadida uchinchi shaxsga murojaat qilishi qayta sug'urta mazmunini tashkil qiladi.

Hozirgi kunga qadar zamonaviy sug'urta amaliyotida ishlatilayotgan qayta sug'urtaning dastlabki klassik ta'rifi 1807 yilda, Angliya sudi tomonidan Delver Barnsga qarshi ishni ko'rishda berilgan. Ushbu ta'rifga asosan: «qayta sug'urtabu, sug'urtachining oldingi tuzgan shartnomasi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlardan o'zini himoya qilish maqsadida tuzgan mustaqil shartnoma asosida paydo bo'lgan yangi, mustaqil sug'urtadir». Kaliforniya shtatining Oliy sudi tomonidan Reinsurance Co Superior Gourt, 3 Cal 4 1118(1992) ishi yuzasidan qabul qilgan qarorida, yuqorida keltirilgan qayta sug'urtaning klassik ta'rifini o'zgarishsiz qo'llagan: «Qayta sug'urta shartnomasi — bu, kompaniyatsedentning qoplab bergan zararini qayta sug'urtachi tomonidan kompensatsiya qilish bo'yicha tuzilgan bitimdir»

Keyinchalik bo'lib o'tgan boshqa sud ishlarida qayta sug'urta ta'rifi bo'yicha quyidagi mazmunda qo'shimcha qarorlar qabul qilingan:

1. Qayta sug'urta shartnomasi mustaqil majburiyatdir.
2. Qayta sug'urta shartnomasida qayta sug'urtalangan risk bo'yicha sug'urta hodisasi ro'y bergan hollarda, sug'urtalanuvchi qayta sug'urtachiga murojaat qilish huquqiga ega emas.
3. Qayta sug'urtani shirkat, hamkorlikdagi faoliyat, agentlik yoki kafolat kabi faoliyat shakllari bilan taqqoslash mumkin emas.

AQSH qonunchiligida qayta sug'urtaning mohiyatini aniqlash va tushunish bo'yicha quyidagi sud qarorlarini ko'rishimiz mumkin: «Jami riskni yoki riskning bir qismini bir sug'urtachi tomonidan ikkinchi sug'urtachiga, to'lovlar evaziga berish» «Qayta sug'urta-bu, bir

sug'urtachi tomonidan ikkinchi sug'urtachini oldin qabul qilgan risklaridan himoya qilish haqidagi shartnoma yoki to'lov evaziga bir tomon boshqa tomonni sug'urtachi va uchinchi shaxs o'rtasidagi oldin tuzilgan mustaqil shartnomaning bajarilishi bilan bog'liq zararlar va majburiyatlardan qisman yoki to'liq himoya qilish to'g'risidagi shartnoma.

Ko'plab davlatlarning «Sug'urta shartnomasi to'g'risida»gi qonunlarida «mazkur qonun qayta sug'urta munosabatlarini tartibga solmaydi» degan tushuncha bilan chegaranilgan (Germaniyaning «Sug'urta shartnomasi to'g'risida»gi qonunining 186-moddasi yoki Shveysariyaning «Sug'urta shartnomasi to'g'risida»gi qonunining 101-moddasi) yoki ba'zi qonunlarda qayta sug'urtaga ruxsat berilishi yoki faqat dengiz sug'urtasining shartnomalari uchun ruxsat berilishi ta'kidlanib, uning aniq tartibi belgilanmagan.

Shunday mamlakatlar borki, bu mamlakatlarda qayta sug'urta munosabatlari umumiy normalar bilan tartibga solinadi (bunga misol, Kaliforniya shtatining sug'urta kodeksidir, 620-623moddalar). Boshqa davlatlarning sug'urta to'g'risidagi qonunchiligi faqat fakultativ qayta sug'urtaga tatbiq qilinadi. Bunga yaqqol misol bulib, 1906 yilda, Angliyada qabul qilingan, fakultativ qayta sug'urtani tartibga soluvchi «Dengiz sug'urtasi to'g'risida»gi qonundir. Obligat qayta sug'urtasi esa ko'pchilik hollarda, ushbu sohada shakllangan odatlar, qoidalar bilan tartibga solinib, to'g'ridan-to'g'ri sug'urta huquqining obyeksi bo'lmadi.

Ba'zi holatlarda sug'urta shartnomasiga faolligi huquq tamoyillari qayta sug'urtaga ham tatbiq qilinishi mumkin. Buning uchun huquq tamoyillari shunchalik umumiy xarakterga ega bo'lishi kerakki, ushbu tamoyillar sug'urta va qayta sug'urtani bir xilda tartibga solishi lozim. Qayta sug'urta amaliyotning boshqa holatlarda, qayta sug'urta sohasida shakllangan odatlari qayta sug'urta munosabatlarini tartibga solayotganligiga guvoh bo'lamiz.

Rossiya Federatsiyasida, Rossiya Federatsiyasining «Sug'urta ishini tashkil qilish to'g'risida»gi qonunning 13-moddasi va Fuqarolik kodeksining 967-moddasi qayta sug'urta munosabatlarini tartibga solishga bag'ishlangan. Rossiya Federatsiyasi qonunlarining ushbu normalarida qayta sug'urta predmetiga turli-xil izoh berilsada, ularning mazmuni sug'urtachiga oldin tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha (agar sug'urta to'lovlari amalga oshirish majburiyati paydo bo'lsa) qayta sug'urta shartnomasini tuzishga ruxsat beriladi. Qayta sug'urta shartnomasi tuzilishi sug'urtachini to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha olgan majburiyatlaridan ozod etmaydi.



Sug'urtachining sug'urtalanuvchi oldidagi shartnomada belgilangan sug'urta qoplamasini, sug'urta hodisasi ro'y bergan hollarda to'lab berish majburiyati saqlanadi.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining tadbirkorlik risklarini sug'urtalash bo'yicha umumiy normalari qayta sug'urta shartnomasiga ham tatbiq qilinadi. Albatta, agar qayta sug'urta shartnomasida tomonlarning boshqacha mazmundagi majburiyati bo'lmasa. Shunday qilib, Rossiya qonunchiligi qayta sug'urtani milliy sug'urtaning bir turi sifatida, milliy sug'urta munosabalarini tartibga soluvchi umumiy normalar bilan qayta sug'urta munosabatlarni ham tartibga soladi. Bunday umumiy normalarga quyidagilar kiradi: sug'urtalangan mulkiy manfaatlarining qonuniyligi va haqiqiyligi, sug'urta riskining mavjudligi, shartnomaning barcha asosiy shartlari bo'yicha bitimning borligi, haqiqiy moddiy zararni qoplash.

Sug'urta shartnomasining tomonlaridan biri chet el huquqiy tizimining subyekti, ya'ni chet davlat rezidenti hisoblansa, bunday shartnomalarni tartibga solish uchun Rossiya qonunchiligiga mos holda, milliy huquq tizimini tanlash erkinligi beriladi( RFFK 1069-1075 m.m). Bunday sug'urta shartnomasining tomonlariga ularga qulay bo'lgan huquq tizimini, shartnoma normalarini tartibga solish uchun qo'llash imkoniyati beriladi. Tanlangan huquqiy tizim tartibga soluvchi me'yor sifatida, umuman shartnomani barcha bandlarini yoki shartnomaning ba'zi normalarini tartibga solish uchun belgilanishi mumkin. Bunda, shartnoma tomonlarning milliy huquqiy tizimlaridan boshqa bo'lgan, uchinchi milliy huquq tizimini shartnoma shartlarini tartibga solishda, huquqiy manbaa vazifasida belgilanishi mumkin. Tanlangan huquqiy tizim shartnomani tuzish, bajarish va yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish uchun qo'llaniladi.

Qayta sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy manbaa sifatida sud tizimining huquqiy amaliyoti ham xizmat qilishi mumkin. Yevropa davlatlarida sudning qayta sug'urta to'g'risidagi qarorlari juda ham kam uchrashi mumkin. Chunki, yuzaga kelgan ko'pchilik nizolar qayta sug'urta shartnomasida belgilangan, arbitraj to'g'risidagi kichik shartga asosan yechiladi.

Shartnomaning arbitrajlar to'g'risidagi kichik shartida, nizolar qaysi arbitr tomonidan ko'rib chiqilishi nazarda tutiladi. Angliya va AQSHda esa sud qarorlari qayta sug'urtani tartibga soluvchi asosiy huquqiy manbaa bo'lib xizmat qiladi. Rossiya Federatsiyasida ham sud qarorlari qayta

sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi muhim huquqiy manbaa deb hisoblanadi va qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha paydo bo'lgan nizolarni yechilishiga sezilarli miqdorda ta'sir ko'rsatadi.

Qayta sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi muhim huquqiy manbaa — bu, qayta sug'urta shartnomasining o'zi hisoblanadi. Qayta sug'urta shartnomasining o'zi to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi va qayta sug'urtachi o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning asosini tashkil qiladi va huquqiy munosabatlarni rasmiylashtirish usulidir. Shartnoma shartlari maxsus atamalar yordamida qisqa bayon qilinadi. Shuning uchun, uzoq yillar davomida, yaqindan olib borilgan xalqaro hamkorlik natijasida shakllangan qayta sug'urta odatlaridan, shartnomada qo'llaniluvchi atamalarga sharh berishda foydalaniladi.

### **Nazorat savollari**

1. Qayta sug'urtaning qanday huquqiy manbalari mavjud?
2. Nima uchun qayta sug'urtada ish yuzasidan shakllangan odatlar muhim rol o'ynaydi?
3. O'zbekiston Respublikasida qayta sug'urta shartnomasining tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
4. Chet mamlakatlarda qo'llaniluvchi qoidalardan asosiy farqi nimada?
5. Yevropa davlatlarida qayta sug'urta munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xosligi nimadan iborat?
6. AQSHda qayta sug'urta shartnomalari qanday tartibga solinadi?
7. Qayta sug'urta shartnomalarini tartibga solish borasida Rossiya Federatsiyasi amaliyoti haqida ma'lumot bering.
8. Qayta sug'urta shartnomalarini tartibga solishda sud amaliyoti ahamiyatini tushuntirib bering.
9. Qayta sug'urta shartnoma shartlarida maxsus atamalar nima sababdan qo'llaniladi?
10. Qayta sug'urta odatlariga sharh bering.

### **7.2. Qayta sug'urta shartnomalarining xalqaro amaliyotda umum e'tirof etilgan ayrim shartlari**

Qayta sug'urta shartnomasining mazmunini unifikatsiya qilishga harakat qilinganligiga qaramasdan, hozirgi kungacha bu borada aniq namunaviy shakl va normalar ishlab chiqilmagan. Qayta sug'urta shartnomasini tartibga soluvchi huquqiy asosni rivojlanish jarayoni

davom etmoqda. U, o'zgaruvchi qayta sug'urta xizmati bozori talablariga mos holda takomillashishi lozim.

Xalqaro obligator qayta sug'urtasi shartnomalarida ba'zi shartlar unchalik katta bo'lmagan darajadagi o'zgarishlar bilan qo'llanilishi mumkin. Shartnomada ishlatiluvchi kichik shartlar mazmuni qayta sug'urtaning qanaqa turi qollanilishiga qarab o'zgarishi mumkin. An'anaviy kichik shartlarda qayta sug'urta to'lovlarining miqdorini aniqlash texnikasi va hisob-kitobini olib borish usullarining o'ziga xos xususiyatlari bayon qilinadi.

«**Taqdir va hisob-kitob orqasidan borish**». Ushbu shartga muvofiq, qayta sug'urtachi faqat tashqi sabab bilan ro'y bergan zararlar uchun javobgar hisoblanadi. Tashqi sabab natijasida yuz bergan zarar turiga to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining xatti-harakati bilan bog'liq bo'lmagan omillar ta'sirida yuzaga kelgan zararlar kiradi. Bu esa, to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi yuzma-yuz to'qnashgan majburiyatlarga qayta sug'urtachi ham duch kelishini bildiradi. Shu sababli, qayta sug'urtachi tsedent tomonidan amalga oshirilayotgan to'lovlarni etibor bilan kuzatib borishi lozim. "Taqdir orqasidan borish" kichik shartiga muvofiq, sug'urtachi va qayta sug'urtachi zarardagi o'z ulushlarini qabul qilishi zarur. Shu bilan birgalikda, qayta sug'urtachi o'zining manfaatlarini himoya qilish maqsadida, qayta sug'urta shartnomasiga qator shartlar kiritishi mumkin. Masalan, agar sug'urtachi o'z ishini mukammal biluvchi hisoblansa va u hamma vaqt qayta sug'urta shartnomasiga ega bo'lmagan sug'urtachi singari ish yuritrsa, «Sug'urtachi sug'urta shartnomasiga o'zi zarur deb topgan o'zgartirishlarni kiritishi mumkin» mazmunidagi qo'shimcha shart qayta sug'urtachi tomonidan qayta sug'urta shartnomasiga kiritilishi mumkin. Yoki, qayta sug'urta shartnomasiga «sug'urtachi qayta sug'urtachining rozilgisiz sug'urta shartlariga, andrayting tamoillariga mustaqil o'zgartirish kiritish huquqiga ega emas» mazmunidagi kichik shartni belgilab qo'yishi mumkin. Qayta sug'urtachi qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha olgan majburiyatni nazorat qilish uchun qo'shimcha shartlar kiritilishi zarur deb hisoblaganda, ushbu mazmundagi shartlar qayta sug'urta shartnomasiga kiritadi.

«Hisob-kitob orqasidan borish» tamoyilini amalda qo'llanilishi va uni qo'llashni cheklashlar bo'yicha ingliz sudi qarorlaridan misol keltiramiz. 80-yillarning boshlarida AQSH da faoliyat olib borgan to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachilar asbest ishlab chiqaruvchilarning javobgarligini sug'urtalash natijasida ko'p miqdordagi zararga duch keldilar. Asbestdan foydalanish natijasida yuzaga kelgan zararni qoplashda qayta sug'urtachini ishtrok etishi to'g'risida Angliya sudi qaror qabul qilgan. Qo'zg'algan riskni sudda ko'rib

chiqish natijasi jahondagi yirik qayta sug'urtachilarning faoliyatiga ham jiddiy ta'sir qildi. 1984 yilda, Velington bitimiga asosan to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachilar guruhi o'z resurslarini birlashtirdi. Birlashtirishdan asosiy maqsadlardan biri, sud harajatlari miqdorini kamaytirish edi. Sud harajatini kamaytirish imkoniyati, bitimni imzolagan har bir to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi uchun paydo bo'ldi. Chunki, bitim a'zolari har bir da'vo bo'yicha paydo bo'lgan majburiyatlarni birgalashib bajarish zarur edi (jumladan majburiyatni olmaganlari ham). 1991 yilda majburiyat bilan bevosita bog'liq bo'lmagan sug'urtachilardan biri o'zining qayta sug'urtachisidan to'lovni amalga oshirishni talab qilib ko'rdi. U o'z talabini qayta sug'urta shartnomasida belgilangan «hisob-kitob orqasidan borish» majburiyatiga asosladi. London Oliy sudi sug'urtachiga uning sug'urtalanmagan obyekt uchun qayta sug'urta qoplamasi olish to'g'risidagi talabini rad qildi. Shunday qilib, sud «hisob-kitob orqasidan borish» shartiga asoslanib, qayta sug'urtachi qayta sug'urtaga qabul qilmagan sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan zararni qoplab bermasligi to'g'risida qaror qabul qildi.

#### **«Xatolar va yanglishishlar haqida kichik shart».**

Borderoni tuzishda, sug'urta risklarini qayta sug'urta shartnomasiga kiritishda, ular bilan bog'liq qayta sug'urta mukofotini hisoblashda, zarar miqdorini va undagi qayta sug'urtachining ulushini hisoblashda sug'urtachi tomonidan bilmasdan, ataylab qilinmagan xatolar ushbu kichik shartga asosan, sug'urtachining qayta sug'urta qoplamasi olish huquqidan mahrum qilmaydi. Bu holatlarda, xato va yanglishishlarni topish bilan, sug'urtachi tomonidan qayta sug'urtachini ogohlantirilmog'i lozim.

#### **« Tekshirishga ( nazoratga) huquq».**

Yuqori darajada vijdonlilik tamoilidan kelib chiqib, qayta sug'urtaga beriluvchi risk miqdorini hisoblashda sug'urtachi o'zoro kelishilgan andrayting tamoyillariga to'liq amal qilishi lozim. To'g'ridan-to'g'ri shartnomani tuzishda sug'urtachi qayta sug'urta shartnomasiga muvofiq, ehtiyotkorlik va batartiblik bilan ish ko'rmog'i lozim.

Qayta sug'urta shartnomasiga taaluqli bo'lgan sug'urtachitsenting kitoblarini, hisob varaqalarini va boshqa shu kabi hujjatlarni tekshirish huquqini qayta sug'urta shartnomasida belgilash, yuqorida keltirilgan vijdonlilik tamoyilini buzilmasligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu huquq sug'urtachining hisob varaqalaridagi yozuvlarni, buhgalteriya kitoblarini, to'g'ridan-to'g'ri shartnomasini, zararni tartibga solish to'g'risidagi hujjat va boshqa qayta sug'urta shartnomasi bilan bog'liq hujjatlarni tekshirishga tatbiq qilinadi.

Amaliyotda, qayta sug'urtchilar ularga berilgan mazkur huquqdan kam foydalanadilar. Shunga qaramasdan, to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalarini tuzishda ushbu huquq, qayta sug'urtachining moliyaviy manfaatlariga rioya qilinishini ta'minlovchi kafil bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi hollarda, sug'urtachi qayta sug'urtachidan uning buxgalteriya kitoblarini, hisobotlarini tekshirishni talab qilishi mumkin. Buxgalteriya hujjatlarini tekshirishdan maqsad, qayta sug'urtachiga qayta sug'urta shartnomasi shartlariga rioya qilinishini ko'rsatishdir yoki to'g'ridan-to'g'ri sug'urta va qayta sug'urta andraytingini soddalashtirish, yaxshilash yuzasidan birgalikda qarorlar qabul qilishdir.

#### **«Arbitr tayinlash to'g'risida» gi kichik shart.**

Deyarli barcha qayta sug'urta shartnomalarida, qayta sug'urta shartnomasini bajarilishi bo'yicha yuzaga kelgan nizolarni ko'rib chiqish maxsus tayinlangan arbitrlar guruhiga yuklanadi. Sudlarning umumiy sud qilish huquqiga, odatda, faqat tasdiqlangan qarzdorlikning to'llanmaslik hollari bilan bog'liq nizolarni yechish vakolati beriladi.

Arbitrlar tarkibi uch kishidan iborat bo'ladi. Harbir tomon bittadan arbitr tayinlashi mumkin. Bosh arbitrni shartnoma tomonlari birgalikda tayinlaydi. Bosh arbitrlarni tayinlash borasida tomonlar kelisha olmasa, xolis bo'lgan uchunchi tomon bosh arbitrni tayinlaydi (masalan, sud, yoki savdo palatasi). Odatda, sug'urta va qayta sug'urta jamiyatlarining xodimlari yoki pensiyaga chiqqan xodimlari arbitr vazifasiga tayinlanadi. Bundan tashqari, arbitrlar guruhi majlisni sug'urtachi-tsendenning bosh ofisi joylashgan joyda o'tkazishga kelishib oladi. Ko'p hollarda, shartnomaning «Arbitrlar to'g'risida»gi shartida arbitrlar guruhining qarori adolatlilik va o'ta vijdonlilik tamoyillariga asoslanishi, ish faoliyatida shakllangan odat me'yorlariga tayanilishi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan kichik shartlardan tashqari, nisbiy obligator qayta sug'urta shartnomalarida boshqa shartlar ham qo'llanilishi mumkin, masalan: lider to'g'risida yoki qo'llaniluvchi huquq tizimi to'g'risidagi kichik shartlar. Qayta sug'urta shartnomasida ishtrok etuvchi qayta sug'urtalovchilar soni ko'pchilikni tashkil qilgan hollarda lider to'g'risidagi kichik shart qo'llaniladi. Ushbu kichik shartda liderqayta sug'urtachining qarorlarini bajarish boshqa qayta sug'urtachilar uchun majburiyligi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan kichik shartlarni nonisbiy qayta sug'urta shartnomalarida qo'llashning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Nonisbiy va nisbiy qayta sug'urta o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, birinchi holatda tsedent va qayta sug'urtachining mukofotlari tubdan farq qiladi.

Odatda, nonisbiy qayta sug'urta shaklida to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi past miqdorda qayta sug'urta mukofoti evaziga maksimal, keng bo'lgan qayta sug'urta qoplamasini olishga harakat qiladi. Qayta sug'urtachi esa, o'z navbatida, qayta sug'urtaga qabul qilayotgan riskka adekvat bo'lgan qayta sug'urta mukofoti olishga va to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi real muhtoj bo'lgan qayta sug'urta qoplamasi bilan ta'minlashga harakat qiladi. «Zararlar va zararlilik ekssendti asoslarida» qayta sug'urta shakli tsendentining risklarini tanlash borasidagi andraytirlik siyosatiga salbiy(negativ) ta'sir qilishi mumkin. Chunki, yirik miqdordagi zararlar yuzaga kelgan hollarda, tsendetning javobgarligi me'yor qayta sug'urta shartnomasida belgilangan ustunlik miqdorida chegaralanadi. Shuning uchun, “zarar ekssedenti asosida” qayta sug'urta shaklida shartnoma shartining “taqdir orqasidan borish” tamoyili qo'llanilmaydi. «Xatolar va yangliklar» to'g'risidagi kichik shart ham “zarar ekssedenti” qayta sug'urta shaklining o'ziga xos xususiyatlarini va elementlarini hisobga olgan holda qo'llanilishi mumkin.

Faqat nonisbiy qayta sug'urta shartnomasida qo'llaniluvchi, maxsus kichik shartlar jumlasiga quyidagilar kiradi: “butunlay netto-zarar” to'g'risidagi kichik shart; “vaqt bo'yicha” (yoki ba'zida uni “soat bo'yicha” deb nomlaydi) kichik shart; “majburiyatlar va hisob-kitoblarni indeks qilish” to'g'risidagi kichik shart.

Nonisbiy qayta sug'urta shaklida sug'urtachining butunlay netto-zararini qayta sug'urtachi tomonidan qoplab berilishi uchun shartnomaga “butunlay netto zarar” haqidagi kichik shart kiritilishi zarur. “Butunlay netto-zarar”— bu, barcha qaytarilgan summalar chegirilgandan keyin sug'urtachiga to'lanadigan zarardir. Qaytariladigan summalarga misol: qayta sug'urtada ishtirok etuvchi qayta sug'urtachidan subrogatsiya ko'rinishida qaytariladigan summalar, obligator yoki fakul'tativ qayta sug'urta shaklida sug'urtachining shaxsiy chegirmada ushlab qolinuvchi summalar va sug'urtachiga boshqa to'lanishi lozim bo'lgan summalar.

Bitta sug'urta voqeasi ro'y berishi natijasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan bir nechta sug'urta hodisalari riskini sug'urta qilish shartnomasini obligator nisbiyga qayta sug'urtalashda tomonlar “soatli shart” da kelishib oladilar. Aniq belgilangan vaqt muddatida sodir bo'lgan barcha alohida zararlar bitta umumiy zararlar yig'indisiga birlashtiriladi. Shartnomada belgilangan vaqt muddatining davomiyligi riskning xarakteriga bog'liq. Odatda, yong'in, yer qimirlash, dovul yoki siyosiy risklarga qarshi sug'urtalarning qayta sug'urtasi uchun 72 soat, suv toshqini va suv

bosish risklarining sug'urtasi uchun 168 soat vaqt muddati belgilanadi. Shartlarda quyidagi me'yorlar nazarda tutiladi:

1. Agar sug'urta hodisasini kvalifikatsiya qilish maqsadida sug'urtaga qabul qilingan risklar birlashtirilsa, u holda albatta ushbu shart qanaqa sug'urta risklariga tatbiq qilinishi (masalan, yer qimirlashi natijasida yuzaga kelgan yong'in, yer qimirlashining o'zi; dovul natijasida sodir bo'lgan suv toshqini va suv bosishi; yoki dovulning o'zi ) ko'rsatiladi.

2. Zararni birlashtirish uchun hududiy cheklanishlar bormi? Agar, bo'lsa, ular qanday cheklanishlar (masalan, suv toshqini va suv bosishi tumanlar bo'yicha, daryoning tumanlarga yaqinligiga qarab tumanlar bo'yicha, fuqarolarning bo'y sunmaslik harakati esa shaharlarning aniq chegarasi bo'yicha cheklanishlar).

Nisbiy qayta sug'urtada sug'urta mukofoti va zararlari sug'urtachi va qayta sug'urtachi o'rtasida nisbiy ravishda taqsimlanadi. Inflatsiyaning sug'urta summasiga nisbatan zarar miqdoriga ko'proq ta'sir ko'rsatishi sug'urta hodisasi bilan bog'liq to'lovlar miqdorini keskin oshishiga olib keladi. Inflatsiya ta'siri natijasida sug'urta to'lovlari miqdorining oshgan qismi sug'urtachi va qayta sug'urtachi manfaatlariga bir xilda taqsimlanadi. "Zarar eksedenti" qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovlarining miqdorini oshishi ko'proq qayta sug'urtachi manfaatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, zararning ustunlikdan oshadigan qismi o'ssada, sug'urtachining portfeli miqdori o'zgarishsiz qoladi yoki ustunlikning real miqdori kamayadi.

Mol-mulk sug'urtasida sug'urta qilingan mol-mulk qiymatining real bahosi inflatsiyaning ta'siri natijasida oshadi. Mos ravishda, "ekssedent zarari" qayta sug'urta shartnomasida belgilangan ustunlik miqdori esa pasayadi.

Shu sababli, qayta sug'urtachi ustunlik miqdori va sug'urtalangan manfaatning real qiymatini o'zgarishi bilan bog'liq javobgarlik chegaralariga tuzatish kiritishni talab qilishi zarur. Inflatsiya ta'siri natijasida zararlar miqdorini oshish muammosi ahamiyati ayniqsa, transport vositalari egalarining javobgarligini va umum fuqorolik javobgarliklarini sug'urtalash sohalarida oshmoqda. Chunki ushbu sug'urta turlarida zararlarni tartibga solish uchun muddat talab qilinadi. Zarar miqdorining o'sishiga inflatsiyadan tashqari, ish haqining oshishi, zararni tartibga solish jarayoniga ta'sir qiluvchi boshqa faoliyat turlarida yuz beruvchi o'zgarishlar (huquqiy xizmat sohasi, qonunchilik, tibbiyot xizmatining qiymatini oshishi) ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Amalda aktuar

hisoblarni qo'llay turib ham zarar miqdorining bunday o'sish me'yorini hisoblash mumkin emas.

“Ekssedent zarari” qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha zarar miqdorini oshishi qayta sug'urta mukofotining miqdoriga ta'sir ko'rsatmaydi. Shartnomaning «tuzatish yoki indeksatsiya» to'g'risidagi kichik shartini kiritish orqali infilyatsiya omilining ta'siri hisobga olinadi. Ushbu kichik shart yordamida ustunlik va qayta sug'urtaning majburiyati miqdori o'rtasidagi mutanosiblik doimiy saqlanadi. Zarar miqdorining har qanday o'zgarishi qayta sug'urta shartnomasining tomonlari o'rtasidagi majburiyatlar mutanosibligiga ta'sir etmaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'p milliy qonunchiliklarida qayta sug'urta munosabatlari fuqorolik huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinmaydi. Moliyaviy qayta sug'urtaning murakkab tarkibi, kompleks apparat tushunchalari, turli xil maqsadlari, uni qonunchilik yordamida tartibga solishni yanada, murakkablashtiradi.

Sug'urta huquqi bo'yicha xalqaro uyushma tomonidan olib borilgan o'rganish natijasi shuni ko'rsatadiki, dunyoda ko'plab mamlakatlarning qonun tizimida moliyaviy qayta sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi me'yorlar o'rin olmagan (Argentina, Finlandiya, Isroil, Daniya, Fransiya). Ba'zi davlatlarda qayta sug'urtaning bunday turi qo'llanilmaydi (Sloveniya, Sal'vador va boshqa qator mamlakatlar).

Moliyaviy qayta sug'urta munosabatlari keng tarqalagan davlatlarning davlat sug'urta nazorati idoralarining qarorlarini tahlil qilish natijasida moliyaviy qayta sug'urtani huquqiy tartibga solish sohasidagi tendensiyalarni aniqlashimiz mumkin. Avstraliyada imzolanuvchi, sug'urtachiga yashirin shaklda zayom kapitalini taqdim qiluvchi moliyaviy qayta sug'urta shartnomalari sug'urta nazorati idorasi bilan kelishilgan bo'lishi lozim. Fransiya sug'urta riski taqsimlanishining har qanday shakli (to'g'ridan-to'g'ri sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari o'rtasida farq qilinmagan holda) qayta sug'urta deb yuritiladi.

Germaniyada sug'urta yoki qayta sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan ikki yuridik shaxs o'rtasida tuzilgan qayta sug'urta shartnomasi moliyaviy qayta sug'urta deb ataladi.

Shveysariyada moliyaviy qayta sug'urta shartnomalari ham oddiy qayta sug'urta shartnomalari uchun belgilangan talablarga javob berishi lozim. Moliyaviy qayta sug'urtaning maqsadi moliyaviy natijani yaxshilash, bo'sh aktivlar bilan ta'minlash, moliyaviy oqimni



optimallashtirish bo'lsada, oddiy qayta sug'urta maqsadidan kam farq qiladi. Shu sababli, sug'urtachi o'z faoliyati davomida sug'urta risklari bilan bir qatorda kredit, investitsiya, moliyaviy risklarga ham duch keladi. Moliyaviy qayta sug'urta shartnomalari shu kabi risklarning bir qismini qayta sug'urtachiga berishga xizmat qiladi. Nazorat qiluvchi idoralarning "moliyaviy qayta sug'urta qayta sug'urtaning mohiyati va maqsadiga mos kelmaydi" deb fikrlashiga ko'pchilik tadqiqotchilar qo'shilmaydilar.

Buyuk Britaniyada, sug'urta nazorati idoralarning moliyaviy qayta sug'urta shartnomasiga qo'ygan talablaridan biri — bu, sug'urta riskining ancha miqdordagi qismini qayta sug'urtachiga berishdir. Ushbu keltirilgan ta'rifda muammoga duch kelgan narsa bu, riskning ancha qismini aniqlashdir. Faqat sug'urta nazorati idoralari tomonidan qayta sug'urta operatsiyalarining samarasi baholanishiga qaramasdan, agar moliyaviy qayta sug'urta shartnomasi sug'urtachining moliyaviy holatini va to'lov qobiliyatini yaxshilanishiga yordam bersa, bunday qayta sug'urta shartnomasini tuzish maqsadga muvofiqdir.

AQSHdagi ko'plab Shtatlarning fuqorolikni tartibga soluvchi qonunchiliklarida qayta sug'urtaga to'g'ridan-to'g'ri ta'rif berilmagan. "Qayta sug'urta shartnomasi" tushunchasi ostida qayta sug'urta belgisiga ega bo'lgan har qanday shartnoma tushuniladi. Bundan tashqari, 1992 yilda sug'urtachining buxgalteriya hisobida (balansida) brutto-majburiyatini aks ettirish bo'yicha yangi tartib o'rnatildi. Ushbu talabga asosan, to'lanmagan zarardagi qayta sug'urtachining ulushi yoki ishlab topilmagan mukofot miqdori sug'urtachining brutto-majburiyati tarkibida hisobga olinadi. Bu tartib moliyaviy qayta sug'urta operatsiyalarining samarasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan moliyaviy qayta sug'urtaning huququy ta'rifi va moliyaviy qayta sug'urta shartomasida ishtrok etuvchi sug'urtachi va qayta sug'urtachi faoliyatlarini bunday tartibga solish tahririga muhtoj. Sug'urta tashkilotlarining risklarini boshqarishda moliyaviy qayta sug'urta mutlaqo yangi tarmoqligini inobatga olishimiz zarur. Moliyaviy qayta sug'urtaning maqsadi — sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va sug'urtachining to'lov qobiliyatini mustahkamlash hisoblanadi. Bu borada moliyaviy qayta sug'urtaning maqsadi an'anaviy qayta sug'urta maqsadi bilan mos keladi. Shu bilan birga, moliyaviy qayta sug'urta ham an'anaviy qayta sug'urta kabi to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachilarning sug'urta operatsiyalarini moliyaviy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda paydo bo'lgan an'anaviy konsepsiyalar-alohida sug'urta turi bo'yicha sug'urta operatsiyalarining natijasini yoki ma'lum sug'urta turlari yig'indisiga nisbatan tatbiq qilinuvchi "zararlilik eksedenti asosida" qayta sug'urta shartnomalari qayta sug'urta to'g'risidagi tushunchalarni tubdan o'zgartiradi.

An'anaviy va moliyaviy qayta sug'urtaning to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha risklarni qayta taqsimlash bilan bog'liq iqtisodiy mohiyati deyarli farq qilmadi. Bundan tashqari, qayta sug'urta shartnomasi shakllari, uning subyektlari tarkibi (sug'urtachi va qayta sug'urtachi) ham mos keladi.

Umuman olganda, moliyaviy qayta sug'urtaning iqtisodiy tabiati an'anaviy qayta sug'urtaning mohiyatiga va uning maqsadlariga qarama-qarshi kelmaydi va shuning uchun moliyaviy qayta sug'urta kelajakda keng sohalarda qo'llanilish istiqboliga egadir.

### **Nazorat savollari**

1. Obligator qayta sug'urta shartnomalaridagi kichik shartlar nimani bildiradi? Qayta sug'urta shartnomalarida qo'llaniluvchi asosiy kichik shartlarni keltiring.

2. Nimaga nisbiy qayta sug'urta shartnomalarida qo'llaniluvchi kichik shartlar nonisbiy qayta sug'urta shartnomalarida qo'llaniluvchi kichik shartlardan farq qiladi?

3. Soatli kichik shart nimani bildiradi? Uni tatbiq qilish shartlari nimalardan iborat?

4. Qaysi holatlarda «taqdir va hisob-kitob orqasidan borish» kichik shartlarini amalda qo'llash mumkin emas, misol keltiring.

5. Moliyaviy qayta sug'urtaning huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat? Chet davlatlar qonunchiligida moliyaviy qayta sug'urta shartnomalarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

6. "Arbitrlar haqidagi kichik shart" mazmuni nimadan iborat?

7. "Butunlay netto-zarar" to'g'risidagi kichik shartning mazmuni nimadan iborat?

8. "Majburiyatlar va hisob-kitoblarni indeks qilish" to'g'risidagi kichik shartning mazmunini tushuntirib bering.

## **VIII BOB. QAYTA SUG'URTA MUKOFOTLARI, KOMISSION TO'LOVLAR, SUG'URTA QOPLAMALARINI HISOBLASH**

### **8.1. Qayta sug'urta mukofotlarini va komission to'lovlarni hisoblash**

Qonunchilikka muvofiq sug'urta shartnomasi qayta sug'urtaga berilgan taqdirda ham sug'urtalanuvchi oldida sug'urta qoplamasini to'lash majburiyati to'liqligicha sug'urtalovchining zimmasida qoladi. Sug'urtalanuvchi sug'urtalangan shaxsni almashtirish, naf oluvchini almashtirish, sug'urta riskining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarishi, sug'urtalangan mulkka bo'lgan huquqlarning boshqa shaxsga o'tganligi holati va boshqa shunga o'xshash holatlarda sug'urta shartnomasini qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza bilan aynan sug'urtalovchiga murojaat etadi. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risidagi da'voni va sug'urta dalolatnomasini tuzuvchi shaxs hisoblanadi. Zarur bo'lgan hollarda sug'urtalovchi sug'urta hodisasi to'g'risidagi ma'lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar, banklar, tibbiyot muassasalari va boshqa vakolatli tashkilotlardan so'rashi yoki sug'urta hodisasini izchil o'rganish maqsadida maxsus ekspertlarni jalb qilishi mumkin. Bundan tashqari qayta sug'urtalanuvchi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasini tuzishda va uning muddati davomida quyidagi xarajatlarni amalga oshiradi:

– sug'urta shartnomalarini tuzganligi uchun sug'urta agentlari va brokerlariga komission mukofotlarni to'lash;

– mol-mulkning haqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida ko'rib chiqish va ekspertlarni jalb qilish;

– sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchini almashtirish bilan bog'liq xarajatlar;

– sug'urta riskining oshishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zgarishi natijasida sug'urta shartnomasini qayta rasmiylashtirish;

– sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan huquqlarning boshqa shaxsga o'tishi va shunga o'xshash hodisalar oqibatida sug'urta shartnomasini qayta rasmiylashtirish;

– sug‘urtalanuvchining sug‘urta hodisasi oqibatida yetgan zararni qoplash maqsadida bergan arizasi;

– sug‘urta hodisasining yuz berish sababalari, uning yetkazgan zararlar hajmini aniqlash bilan bog‘liq xarajatlar va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan xarajatlarni ma‘lum darajada qoplash maqsadida qayta sug‘urtalash shartnomasida sug‘urta mukofotiga nisbatan foiz hisobida komission mukofotlarni to‘lash tartibi keltiriladi.

Ma‘lumki, komission mukofotlar qayta sug‘urtalanuvchi tomonidan olib qolinishi mumkin.

Mazkur xarajatlarni kompensatsiyalash maqsadida sug‘urtalovchi qayta sug‘urtalovchidan ma‘lum miqdorda mukofot yoki siylovlarni talab qilishi mumkin. Odatda, mazkur siylovlar qayta sug‘urtalash shartnomasida sug‘urta mukofotiga nisbatan foizlarda ko‘rsatilib, qayta sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta mukofotlarini qayta sug‘urtaga o‘tkazishda ushlab qolinadi.

Shu sababli, qayta sug‘urtaga o‘tkaziladigan sug‘urta mukofotlari haqiqiy qayta sug‘urta mukofotlari summasidan kamroqni tashkil etadi.

Qonunchilikda qayta sug‘urtalash shartnomalarining sug‘urta mukofoti to‘lanishi bilan kuchga kirishi to‘g‘risida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘lumot keltirilmagan. Shuning uchun obligatorli qayta sug‘urtalash shartnomalarini amalga oshirish amaliyotida sug‘urta mukofotlarini har bir risk bo‘yicha emas balki, ma‘lum muddat davomida qayta sug‘urtaga berilgan risklarning jamiga nisbatan hisoblash tartibi qo‘llaniladi. Albatta bu tartib qayta sug‘urtalash shartnomasida keltirilgan bo‘lishi shart.

Obligatorli qayta sug‘urtalash shartnomasi, unda ko‘rsatiladigan risklar qayta sug‘urtalanuvchi tomonidan belgilangan tartibda qayta sug‘urtalovchiga o‘tkazish va ularning qayta sug‘urtalovchi tomonidan qabul qilinishini nazarda tutadi.

Chunki:

– qayta sug‘urtalanuvchi risklarni qayta sug‘urtaga berishi va qayta sug‘urtalovchi qabul qilishi har qanday holatda qabul qilinishi lozim;

– ushbu risk bo‘yicha qayta sug‘urtalovchining javobgarligi qayta sug‘urtalanuvchining javobgarligi boshlanishi bilan boshlanadi.

Shu vaqtning o‘zida sug‘urtalovchi qayta sug‘urtalash shartnomasida belgilangan tartibda komission siylovlarni ushlab qoladi.

Agar obligatorli qayta sug‘urtalash shartnomasida ma‘lum davr oralig‘ida qayta sug‘urtaga beriladigan sug‘urta risklarining yalpi hajmi bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini berish belgilangan bo‘lsa, hisobot davri

oxirigacha hisoblangan qayta sug'urta mukofotlari komission chegirilgan holda qayta sug'urtalanuvchida deponentlangan hisoblanadi.

Ba'zida bunday qayta sug'urtalash shartnomalarida deponentlangan qayta sug'urta mukofotlarining saqlanish muddatiga muvofiq ravishda foiz to'lash tartibi ham keltirilishi mumkin.

Qayta sug'urtalanuvchi tomonidan depo mukofotlaridan foydalanganlik uchun daromad summasi quyidagi formula orqali hisoblanishi mumkin<sup>1</sup>:

$$ND = \frac{DP \times I \times N}{100 \times 365}$$

ND – hisoblangan daromad summasi;

DP – deponentlangan sug'urta mukofoti hajmi;

N – deponentlash muddati, kunlarda;

I – qayta sug'urtalanuvchi tomonidan o'z hisobidagi depo mukofotlarga hisoblanadigan yillik daromad normasining foizdagi ifodasi.

Pul mablag'larining qayta sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazib berilishi bilan sug'urtalovchining qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha qarzdorligi yopiladi.

Yuqorida keltirilganlarga muvofiq ravishda obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalari asosida sug'urta mukofotlari bosqichma-bosqich to'lab borilishi mumkin.

### Nazorat savollari

1. Qayta sug'urta mukofotlarining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Qayta sug'urta mukofotlari kim tomonidan to'lanadi?
3. Komission to'lovlar nima?
4. Kimlar komission to'lovlarni amalga oshiradi?
5. Depo mukofotlari nima?
6. Depo mukofotlari qanday hisoblanadi?
7. Depo mukofolariga foyizlar hisoblash tartibini tushuntirib bering.
8. Depo mukofolarini ishlatish tartibini tushuntirib bering.
9. Obligator sug'urta shartnomalarida qayta sug'urta mukofotlarini hisoblash tartibini izohlang.
10. Fakultativ qayta sug'urta shartnomalarida qayta sug'urta mukofotlarini hisoblash tartibini tushuntirib bering.

---

<sup>1</sup> I.I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, D.S.Sultanov, Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va audit. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2008 y. - 181 b

## 8.2. Qayta sug'urta qoplamalarini hisob-kitob qilish

Qayta sug'urtalash shartnomasiga ko'ra qayta sug'urtalovchi sug'urta zararini qoplash bilan bog'liq zararining bir qismini, ya'ni shartnomada belgilangan ulushda qoplab berishi lozim.

Ushbu qoplamanı olish uchun sug'urtalovchi (qayta sug'urtalanuvchi) qayta sug'urtalovchiga bergan arizasiga quyidagilarni ilova qilgan holda jo'natadi:

– belgilangan tartibda tasdiqlangan to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalarining nusxalari (sug'urta polisi, kvitansiya, ma'lumotnoma, sertifikat yoki boshqalar);

– sug'urta hodisasining yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar (sug'urta dalolatnomasi, unga tegishli idoralarning ma'lumotnomalari ilova qilinadi, sug'urta hodisasining yuz berganligini va sabablarini, zarar hajmini tasdiqlovchi hujjatlar);

– to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta qoplamalarining to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Qayta sug'urtalovchi quyidagi hollarda sug'urta qoplamasini to'lashni rad etishi mumkin:

– qayta sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasini yetarli darajada o'rganmagan, ya'ni sug'urta hodisasining yuz berish sababalari, uning xarakteri, sug'urta zararining hajmi va boshqalar;

– qayta sug'urtalanuvchining sug'urta hodisasini sodir etganlikda aybdor uchinchi shaxslardan zararni undirish huquqidan voz kechgan yoki qayta sug'urtalanuvchining aybi bilan uchinchi shaxsdan sug'urta qoplamasini undirish imkoniyatining yo'qotilishi;

– qayta sug'urtalanuvchi uchinchi javobgar shaxslardan sug'urta zararining hajmini undirgan taqdirda.

Qayta sug'urtalash shartnomalarida qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini to'lash bilan bog'liq qarorlariga amal qilishi belgilanishi zarur. Shuning uchun qayta sug'urtalovchi qayta sug'urta hodisasini qaytadan tekshirishi mumkin bo'lmaydi va o'z zimmasiga olgan majburiyatning tegishli qismi bo'yicha sug'urta qoplamasini qayta sug'urtalanuvchiga to'lab berishi shart. Mazkur holat agar qayta sug'urtalovchi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisasini izchil o'rgangan va sug'urtalanuvchi javobgar shaxslardan sug'urta zararini undirish huquqidan voz kechmagan va qoplama olmagan taqdirda, qo'llaniladi.

Qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta qoplamasini qayta sug'urtalash shartnomasi amal qilish muddati tugagandan so'ng to'langan bo'lsa ham o'ziga tegishli sug'urta qoplamasini qayta sug'urtalanuvchiga to'lab berishi shart.

Ma'lumki, deponentlangan mukofotlar qayta sug'urtalanuvchining ixtiyorida qoladi. Mazkur risklar bo'yicha qayta sug'urtalovchining ulushlari bo'yicha sug'urta qoplamalarini qayta sug'urtalovchi depo mukofotlar va unga hisoblangan foizlar hisobidan qoplashi mumkin.

Agar qayta sug'urtalash shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa, depo mukofotlariga hisoblangan daromadlar ham qoplamalarni qoplashga yo'naltirilishi mumkin.

Agar qayta sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamasi summasi depo mukofotlar va ularga hisoblangan foizlar summasidan kam bo'lsa, u holda sug'urta qoplamasi depo mukofotlari hisobidan qoplaniladi.

O'zaro hisob-kitoblarning bunday tartibi sug'urta mukofotlarini bosqichma-bosqich to'lashni nazarda tutuvchi fakultativ qayta sug'urtalash shartnomalari va belgilangan davrda qabul qilingan risklarning ma'lum qismini qayta sug'urtaga o'tkazilishida sug'urta mukofotining davriy ravishda to'lanishini nazarda tutuvchi obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalarida ko'rsatilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblar sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchilarning o'zaro hisob-kitob dalolatnomalari asosida amalga oshiriladi.

Qonunchilikka muvofiq agar mulkiy sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning sug'urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug'urta qoplamasini to'lagan sug'urtalovchiga o'tadi. Xuddi shunday huquqqa qayta sug'urtalanuvchining zararlarini qoplab bergan qayta sug'urtalovchi ham ega. Shuning uchun qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchiga qoplab bergan zarar doirasida sug'urta hodisasida aybdor shaxsga nisbatan zararni undirib olish huquqiga ega bo'ladi. Qayta sug'urtalash shartnomasida sug'urta hodisasini sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan da'vo qilishni qayta sug'urtalanuvchi tomonidan zararning o'ziga tegishli qismi doirasida amalga oshirishi mumkinligi yoki qayta sug'urtalanuvchi tomonidan aybdor shaxslarga nisbatan da'vo qilinganda qayta sug'urtalovchining ham manfaatlarini hisobga olishi mumkinligi belgilangan bo'lishi mumkin.

## Nazorat savollari

1. Qayta sug'urta qoplamasi nima?
2. Qayta sug'urta qoplamasini hisoblash tartibini tushuntirib bering.
3. Kim qayta sug'urta qoplamasi to'lovini amalga oshiradi?
4. Aybdor uchinchi shaxslardan zarar miqdori undirganda qayta sug'urta qoplamlarini to'lash tartibini tushuntirib bering.
5. Qayta sug'urta qoplamlarini undirish uchun to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachilar qanday hujjatlar taqdim qiladilar?
6. Depo mukofoti mavjud hollarda qayta sug'urta mukofotlarini to'lash tartibida qanday o'ziga xosliklar mavjud?
7. Qayta sug'urta shartnomasi mavjud hollarda to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha zararlar uchun sug'urtalanuvchi oldida kim javobgar hisoblanadi?
8. Qaysi hollarda qayta sug'urta qoplamlari to'lab berilmaydi?
9. Qayta sug'urta qoplamlarini to'lash bo'yicha sug'urtachi va qayta sug'urtachining majburiyatlarini tushuntirib bering.
10. Qayta sug'urta turlari bo'yicha qayta sug'urta qoplamlarini amalga oshirishda o'ziga xosliklar nimalardan iborat?

### **8.3. Qayta sug'urtalanuvchi tomonidan xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini shakllantirish**

Qayta sug'urtalanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha ko'rilgan zararlarning ulushini qoplashda sug'urta qoplamasini to'lash borasida quyidagini hisobga olish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasiga muvofiq qayta sug'urta shartnomasiga tadbirkorlik xavfini sug'urtalash shartnomasi sifatida qaralishi mumkin. Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta qoplamasining ulushini to'lashga shunday sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasi sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchidan sug'urta hodisasi yuz berganligi yoki sug'urta qoplamasining to'langanligi to'g'risidagi xabarni olgandan so'ng belgilangan tartibda "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi"ni shakllantirishi mumkin. Ushbu zaxira "Zararlar va boshqa texnik zaxiralar"da hisobga olib boriladi.

Ushbu zaxiraning hajmi to'lanishi kutilayotgan sug'urta qoplamlarining summasi bilan aniqlanadi. Sug'urta zararining hajmi arizada ko'rsatilmagan bo'lsa, zaxira miqdori maksimal summada tashkil qilinadi.



Masalan, 1000000 so‘m tovarlar saqlanuvchi ombor sug‘urtalangan bo‘lib, undagi qayta sug‘urtalovchining ulushi 20%ni tashkil etadi. Omborga yong‘in tushganligi to‘g‘risida xabar kelgan taqdirda, zararning hajmi noaniq bo‘lsa zaxira miqdori quyidagi summaga beriladi:

$$0.2 * 1000000 = 200000 \text{ so‘m}$$

Agar sug‘urta shartnomasida 10000 so‘mlik shartsiz franshiza nazarda tutilgan bo‘lsa, zaxira miqdori quyidagi summaga beriladi:

$$0.2 * (1000000 - 10000) = 198000 \text{ so‘m}$$

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini, agar joriy yilda xabar qilingan zararlarni o‘rganish va unga sug‘urta qoplamasini to‘lash to‘g‘risidagi qarorni ushbu yilda chiqarishning imkoni bo‘lmagan taqdirda, shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi sug‘urta mukofotlari qaysi valutada to‘langan bo‘lsa, o‘sha valutada to‘lanishi belgilangan.

### Nazorat savollari

1. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi mohiyatini tushuntirib bering.

2. Nima sababdan qayta sug‘urtachi tomonidan xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi tashkil qilinadi?

3. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi tartibini tushuntirib bering.

4. Nima asosida xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi shakllantiriladi?

5. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini shakllantirish bo‘yicha misol keltiring.

6. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasining sarf qilinish tartibini tushuntirib bering.

7. Qanday hollarda xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi maksimal miqdorda shakllantiriladi?

8. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini shakllantirishda franshizani hisobga olishni tushuntirib bering.

9. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi mablag‘lari qaysi valutada shakllantiriladi?

10. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi qaysi me‘yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston”, 2008 yil.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. “O‘zbekiston”, 1995 y.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. “O‘zbekiston”, 1997 yil.
4. Karimov I.A. Islohotlar strategiyasi – mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishdir. Xalq so‘zi, 2003 yil 18 fevral.
5. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. “Adolat”, 1997 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonuni. “Xalq so‘zi”, 2008 yil 21 aprel.
7. O‘zbekiston Respublikasi qonuni: Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida. “Xalq so‘zi”, 2002 yil 28 may.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.// “Xalq so‘zi”, 2008 yil 22 may.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 3022-sonli “Sug‘urta bozorini rivojlantirish va yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2002 yil 1 fevraldagi Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 413-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2002 yil 27 noyabr.
11. «Типовые правила страхования предпринимательских рисков». Утверждено министерством Финансов Республики Узбекистан от 17 июня 2008 года.
12. «Об утверждении положения о порядке определения предельно допустимого м нормативов платежеспособности страховщиков». Утверждено приказом №10 Министерства Финансов Республики Узбекистан от 8 февраля 2006 года.
13. Кузьминов Н.Н. «Особенности бухгалтерского учета в страховых компаниях», изд. второе, Анкил, Москва, 2000 г.
14. Адамчук Н.Г. «Операционная деятельность страховой компании», Страховое дело. 2002 №-1 С.30-39

15. Ochilov I., Shirinov S.E., Sultonov D. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va audit.-Т.: «MOLIYA-IQTISOD», 2008.

16. Шеннаев Х.М. «Проблемы становления страхового рынка в Узбекистане», автореферат дисс. Финансовая академия при правительстве. РФ –М-1996.

17. Рищенко Н.Б. «Понятие страхового фонда в современной рыночной экономике», Страховое дело. М, 2002. №-11\С. 52-60.

18. «Профессионализм – основа успеха и новых возможностей» (Узбекинвест-лидер страхового рынка) Деловой партнёр Узбекистана. 2002 3 январ.

19. Ашрафханов Б., Мирсадыков М. «Новая ступень в законодательном регулировании страхового рынка Республики» Экономика и класс собственников. 2002 г. №-3.

20. Гвозденко А.А. Основы страхования, Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2003.

21. Основы страховой деятельности: Учебник./ Отв. ред. проф. Т.А. Федорова. - М.: Издательство БЕК, 2002.

22. Mahmudova L. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma.-Т.: TAQI, 2004 y.

23. Sobirov H. Sug'urta: 100 savol va javob. - Т.: «Mehnat», 1998.

24. Хо'jayев Y. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta. O'quv qo'llanma.- Т.: Soliq akademiyasi, 2005.

25. Адамчук Н.Г., Юлдашев Р.Т. Обзор страховых рынков ведущих стран мира. (серия «Мировые страховые рынки»). - М.: Издательство «Анkil», 2001.

26. Роик В.Д. Профессиональный риск: оценка и управление. - М.: «Анkil», 2004.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Страховое дело: Учебник. В 2 т. (пер. с нем. О.И. Крюгер и Т.А. Федоровой). - т.1: Основы страхования / под ред. О.И. Крюгер. - М.: Экономистъ, 2004.

2. Страхование. Под редакцией проф. Т.А.Федоровой. Учебник. -М.:Магстр. 2008 г.

3. Шахов В.В. Страхование. Учебник для вузов.-М.: «ЮНИТИ», 2001.

4. Юлдашев Р.Т. Страховой бизнес: Словарь-справочник// Р.Т. Юлдашев – М., Анкел, 2005.

5. Шахов В.В. Страховой бизнес: Учебник для вузов. -М.: ЮНИТИ, 2000.

Internet saytlari:

[www.znay.ru](http://www.znay.ru)

[www.strahovka.ru](http://www.strahovka.ru)

[www.agros.uz](http://www.agros.uz)

[www.unic.gov.uz](http://www.unic.gov.uz)

[www.sig-insurance.uz](http://www.sig-insurance.uz)

[www.kafolatdask.uz](http://www.kafolatdask.uz)

[www.toshkent-sugurta.uz](http://www.toshkent-sugurta.uz)

[www.aig.com](http://www.aig.com)

[www.alskom.uz](http://www.alskom.uz)

[www.UzReport.com](http://www.UzReport.com)

# MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
---------------------	----------

## **I BOB. QAYTA SUG‘URTANING MOHIYATI VA AHAMIYATI**

1.1. Sug‘urta munosabatlari va ularning vujudga kelishi .....	5
1.2. Qayta sug‘urtaning mazmuni va uning sug‘urta munosabatlarida tutgan o‘rni.....	10

## **II BOB. QAYTA SUG‘URTANING SHAKLI VA TURLARI**

2.1. Qayta sug‘urtaning shakllari va turlari, qayta sug‘urta shartnomalarida qo‘llaniluvchi asosiy tushunchalar .....	22
2.2. Fakultativ qayta sug‘urta .....	26
2.3. Obligatör qayta sug‘urtalash .....	29

## **III BOB. NISBIY QAYTA SUG‘URTA MEXANIZMI**

3.1. Nisbiy qayta sug‘urta va uning tarkibi.....	32
3.2. Ekssedent summasi asosida nisbiy qayta sug‘urta (surplus reinsurance) .....	35

## **IV BOB. NONISBIY QAYTA SUG‘URTA MEXANIZMI**

4.1. Zarar eksседenti ( excess of loss) asosida qayta sug‘urta turi.....	38
4.2. Zararlilik eksседenti asosida qayta sug‘urta (stop-loss) turi	40

## **V BOB. QAYTA SUG‘URTA FAOLIYATINING HUQUQIY VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI**

5.1 Qayta sug‘urta faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari .....	42
5.2. Qayta sug‘urta faoliyatining huquqiy asoslari .....	45
5.3. Sug‘urta faoliyatining klasslari .....	49

## **VI BOB. QAYTA SUG'URTA FAOLIYATINI HUJJATLASHTIRISH**

6.1. Qayta sug'urta shartnomalarini tuzish tartibi .....	55
6.2. Qayta sug'urta shartnomalariga doir boshqa hujjatlashtirishlar .....	56

## **VII BOB. QAYTA SUG'URTA SHARTNOMALARINI TARTIBGA SOLISHNING XALQARO AMALIYOTI**

7.1. Qayta sug'urta shartnomasini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari .....	61
7.2. Qayta sug'urta shartnomalarining xalqaro amaliyotda umum e'tirof etilgan ayrim shartlari .....	66

## **VIII BOB. QAYTA SUG'URTA MUKOFOTLARI, KOMISSION TO'LOVLAR, SUG'URTA QOPLAMALARINI HISOBLASH**

8.1. Qayta sug'urta mukofotlarini va komission to'lovlarni hisoblash .....	75
8.2. Qayta sug'urta qoplamalarini hisob-kitob qilish .....	78
8.3. Qayta sug'urtalanuvchi tomonidan xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini shakllantirish .....	80
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....	82

**X.M. SHENNAYEV, S.E. SHIRINOV**

# **QAYTA SUG'URTA**

**o'quv qo'llanma**

Muharrir Sh.Xudoyberdiyeva  
Kompyuterda sahifalovchi G.To'laganova

Bosishga ruxsat etildi 20.08.09 Bichimi 60x84<sub>1/16</sub>  
Nashr hisob tabog'i 5,5 b.t. Adadi 300. Buyurtma № 135

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti,  
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7

Toshkent Moliya instituti bosmaxonasida  
rizografiya usulida chop etildi 100000,  
Amir Temur shoh ko'chasi, 60<sup>A</sup> uy

